

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAN`ATSHUNOSLIK FAKULTETI**

**TASVIRIY SAN`AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI**

**«Yogoch o`ymakorligida lagan tayyorlash texnologiyasi »  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: Kasb ta`limi (amaliy san`at) ta`lim  
yo`nalishi bitiruvchi talabasi  
**Gaybullayeva Zarina** \_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar: katta o`qituvchi  
**Avliyakulov M.M** \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.

sonli bayonnomasi «\_\_\_\_\_» 2020 yil.

**BUXORO – 2020 yil**

## **MUNDARIJA**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3-7 betlar</b>
<b>I-BOB. Yogoč o'ymakorligi tarixi.</b>	
1.1. Yogoč o'ymakorligi tarixi.....	8-16betlar
1.2. Yogoč o'ymakorligi maktablari.....	17-30 betlar
1.3. Mustakillik yillarda yogoč o'ymakorligining rivojlanishi.....	31-34 betlar
<b>II-BOB. Yogoč o'ymakorligida laganni bezash.</b>	
2.1. Lagan uchun yogoč tanlash va laganni yasash.....	35-40 betlar
2.2. Lagan uchun naksh kompozitsiyasini bajarish .....	40-45 betlar
2.3. Laganda o'yma ishlarini bajarish.....	45-50 betlar
2.4. Laganni loklash jarayoni.....	50-52 betlar
<b>XULOSA.....</b>	<b>53-55 betlar</b>
<b>ATAMALAR IZOHLI LUG'ATI.....</b>	<b>56-60 betlar</b>
<b>ILOVALAR. ....</b>	<b>61-83 betlar</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>84 bet</b>

## KIRISH.

Men o’z bitiruv malakaviy ishimni amaliy san’atning yog’och o’ymakorligi fanidan „Yog’och o’ymakorligida qalamdon, quticha yasash texnologiyasi” mavzusini tanladim. Bundan asosiy maqsadim yurtimiz bo’ylab azaldan shakllanib kelayotgan yog’och o’ymakorligida ishlanadigan dekorativ yodgorliklarga milliylikni saqlagan holda ularni yangicha usullarda ishlab chiqarish. Buning asosida men butun jahonga mashhur bo’lib kelayotgan ajoyib san’at namunalarini o’rgatish bilan birgalikda, ularga yanada sayqal berib, nafaqat o’z yurtdoshlarimizni balki, yurtimiz bo’ylab turizm sohasini yanada jalb etish hisoblanadi. Mamlakatimiz kelajagi bugungi kunda ko’pgina sohalarda rivojlanib jahon hamjamiyatida munosib o’rnlarga ega bo’lib kelmoqda. Ta’lim, sport, meditsina, ishlab chiqarish, qishloq xo’jaligi sohalari kabi hunarmandchilik sohasida ham yurtdoshlarimiz jahon ko’rkazmalarida ishtirok etib an’ana, urfatdatlarimizni namoyon etib kelmoqdalar. Biz yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo’lgan barkamol avlodga ega bo’lish, tashkilotchi va zukko yoshlarni tarbiyalashimiz uchun har bir sohani e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2017-yil 25 dekabr kuni madaniyat va san’at sohasidagi dolzARB masalalar muhokamasiga bag’ishlangan yig’ilishda quydagicha e’tirof etib o’tdilar. „Ma’lumki, har bir millatning madaniyati va san’ati uning g’urur iftixori manbai hisoblanadi. Bugungi kunda milliy madaniyatimiz va san’atimizni rivojlantirish bo’yincha olib borilayotgan barcha ishlarimiz shu maqsadga qaratilgan. Buyuk kelajagimizni barpo etar ekanmiz, avvalo, madaniy va ma’naviy asoslarini mustahkam qurishimiz kerak”.

Yig’ilishda 2018-yilda amalga oshiriladigan ishlar haqida xususan, tasviriy va amaliy san’at sohasida xorijdagi yetakchi san’at maskanlari bilan tajriba almashishni yo’lga qo’yish, chet ellarda taniqli rassomlarimizning ko’rgazmalarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratish bo’yincha amaliy takliflar bildirib o’tilgan edi. 2018-yilda Toshkent va Buxoro shaharlarida o’tkazilgan xalqaro ko’rgazmada

rassomlarning o'zaro tajriba almashinishi va tasviriy san'atning boy namunalari jamlanishi san'atga bo'lgan e'tiborning yorqin isbotidir.

O'zbek xalqining qadimiy amaliy san'ati deganimizda biz albatta xalq hunarmandchiligining asosini tashkil etib kelgan amaliy san'at haqida fikr yuritamiz. Chunki xalq amaliy san'ati xalq hunarmandchiligining asosini tashkil etib kelgan.

Zeroki, o'zbek xalqi hunarmandchiligining tarixiy ildizlari xalq amaliy san'ati asosida taraqqiy etib juda qadimgi, mumtoz hamda buzrukvor asriy tajribalarga tayanib o'zining serunum hamda serjilo, shu bilan bir vaqtda har bir insonni hayratga solib kelgan madaniy me'rosdir. Odamzodning madaniyatga bo'lgan ilk qadami, qadamiy ibtidoiy davrdan boshlanganligini qayd etishimiz kerak. Turmush, tirikchilik hamda uy- ro'zg'or taqozosi talablari bilan vujudga kelgan buyumlar, kundalik zarurat uchun kerakli bo'lgan asbob anjomlar yasash hamda ularni har xil ko'rinish va shakllarda ijod etish har bir davming majburiyatiga aylanib qolgan. Bu buyumlar turmushda dastavval sodda ko'rinishga ega bo'lib, yillar davomida shakllanib, yangicha ko'rinish hamda qulayligi, zamon talabiga moslanishi o'z davrining moxir ustalaridan ijodiy izlanishni talab etgan.

Ma'lumotlarga qaraganda bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur chet el yurishlaridan keyin Samarqandga 150 000 dan ziyod turli kasb egalari va hunarmandlarni olib kelib ular uchun shaharlarda va ayrim qishloqlarda hunarmandlar mahallalarini tashkil qilgan ekan. Bunday harakat va uzoqni ko'ra bilish Movaraunnahrning moddiy – madaniy taraqqiyotini yanada yuksaltirishga qaratilgan reja bo'lgan.

Bunday an'ana keyinchalik ham mavjud bo'lib, O'zbekiston hududida amaliy hunarmandchiliqi markazlari vujudga kelgan va asrlar davomida shakllanib borgan. Bu markazlarda xalq ehtiyoji uchun kerakli bo'lgan buyumlar ishlab chiqarilgan va bozorlarda sotilgan. Farg'ona viloyatining Marg'ilon, Qo'qon, Namangan viloyatining Chust , Andijon viloyatida Shaxixon, Buxoro viloyatida

G’ijduvon, Buxoro shahri , Qashqadaryo viloyatida , Qarshi, Samarqand viloyatida Urgut, Surxondaryo viloyatida Boysun ana shu markazlardandir.

Yog’ochdan sharq an’anasi asosida xilma-xil badiiy buyumlar ishlaydigan o’zbek yog’ochsoz ustalar hozirgi vaqtida o’z hunarlarini asosan eshik, ustun binokorlik qismlari, uy ro’zg’or buyumlarigina emas, balki o’quv qurollari uchun anjom; qalamdon, quticha, lavh shuningdek, ko’rgazmali buyumlarni bejirim tumorlarni yasashda bog’dodi, islimiyl, pargori uslublardan foydalangan holda o’ymakorlik san’ati jozibasini namoyon etib kelmoqdalar.

**Mavzuning dolzarbligi** shundaki, hunarmandchilikning tarixiga e’tibor bersak, o’ymakorlik buyumlari, avvalo tosh o’ymakorligi, suyak o’ymakorligi, keyinchalik esa yog’och o’ymakorligi, ganch o’ymakorligi san’ati sekin astalik bilan o’z rivojini topdi. O’ymakorlik asosida ishlangan me’morlik inshootlari, turar joy binolari doimo estetik zavq ruhlanish manbai bo’lib kelgan. Milliy hunarmandchilik ma’naviy dunyoyimizni yanada boyitib, oliy barkamolikka olib chiqdi. Shuning uchun ham madaniy me’rosimizni o’rganishimiz, uning yaratilish tarixini bilish, yangi-yangi imkoniyatlarni topib unga yangi tarix qo’shish, hamda uning imkoniyatlaridan foydalangan holda bugungi kun talabiga mos keladigan buyum turlarini boyitib borish bugungi kunda oldimizdagи dolzarb masaladir. Biz o’z imkoniyatimizdan kelib chiqqan holda, tarixiy ma’lumotlarga tayanib ularni yangi fikrlar bilan boyitib borishimiz zarur. Yog’och o’ymakorligi bilan shug’ullanuvchi ko’pgina usta hunarmandlar, xususan, Buxoro o’ymakorlik usullariga oid ma’lumotlarni boyitish.

### **Bitiruv malakaviy ishi davomida bir qancha adabiyotlardan foydalandim.**

Muhammadumar Ahmedovning „Yog’och o’ymakorligi” nomli qo’llanmasida yog’och o’ymakorligining asosiy ma’lumotlari jamlanmasi bo’lib hisoblanadi. Yog’och o’ymakorligi bilan foydalanmoqchi bo’lgan yoshlar ushbu qo’llanmada o’ymakorlik uchun zarur bo’lgan yog’och navlarining xil-xususiyatlari, asbob-uskunalar, o’ymakorlik bosqichlari, kabi bir qancha ma’lumotlarga ega bo’lishadi.

„O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” kitobidan men O’zbekiston xalq amaliy san’ati va uning rivojlanishi tarixi haqida, hududlardagi hunarmandchilik rivoji haqida ustalar ijodi, atamalar izohi kabi ma’lumotlarga ega bo’ldim.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash mobaynida hozirgi kunda „Labi hovuz majmui”da, „Nodir devonbegi” madrasalarida faoliyat yuritayotgan bir qancha ustalar bilan suhbat qurib, ular ishini kuzatib ma’lumotlarimni boyitdim.

Shuningdek ilmiy rahbarim M.Avliyoqulovning ijodiy ishlari va maslahatlaridan foydalandim.

**Tadqiqot maqsadi:** Yog’och o’ymakorligi sohasidagi ijod namunalarini o’rganish va uni boyitishni, ustalarning ijodini kuzatish, yog’och o’ymakorligi uslublari va ishslash texnologiyalarini o’rganishni ko’rsatib berish.

**Tadqiqot obyekti va predmeti:** Yog’och o’ymakorligida bezatiladigan dekorativ yodgorlik buyumlari (yog’och o’ymakorligida bezatilgan lagan).

### **Vazifalari:**

- Yog’och o’ymakorligi san’atining tarixiy rivoji haqida bilimlarga ega bo’lish;
- Yog’och o’ymakorligida ishlatiladigan asbob-uskunalar va materiallarning xususiyati haqida bilimlarga ega bo’lish;
- Yog’och materiallardan dekorativ lagan yasash texnalogiyasi haqida tushunchaga ega bo’lish;
- Yog’och o’ymakorligi san’atida qo’llaniladigan atamalarni yig’ish;

**Tadqiqot metodlari:** Yog’och o’ymakorligi nazariyasini o’rganish va amaliy ish bajarish (o’yma lagan).

**Tadqiqot farazi:** Ushbu bitiruv malakaviy ishning mavzusiga doir amaliy va nazariy ma’lumotlarni yig’ish, ularga yangi ma’lumotlar qo’shish orqali boyitib borish.

**Bajargan ishning asosiy natijalari.** Bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida yog’och o’ymakorlikka oid ko’pgina ma’lumotlarga ega bo’ldim, xususan, yurtimizda faoliyat olib borayotga bir necha hunarmandlar bilan ularning ustozlari hayot faoliyatlari bilan bizgacha yetib kelgan hunarlarining sirlari bilan tanishdim.

### **Bitiruv malakaviy ishining tuzilmasi.**

Bitiruv malakaviy ishi nazariy va amaliy qismlardan iborat.

Nazariy qismda mundarija, kirish qismi, 2 bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, atamalar izohli lug'ati, bitiruv malakaviy ishiga oid ilovalardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy qismida islamiy naqshdan foydalanib dekorativ laganni yog'och o'ymakorligida bezatildi.

## **I-BOB. YOGOCH O'YMAKORLIGI TARIXI**

### **1.1. Yogoched o'ymakorligi tarixi.**

Amaliy san'atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulg`ayib borgan sari amaliy san'at ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borish jarayonida qo`l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uyro`o`zor buyumlariga bo`lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh o`ymakorligi, suyak o`ymakorligi, keyinchalik esa yog'och o`ymakorligi san'ati sekin astalik bilan o`z rivojini topdi.

Milloddan avval, xususan tosh davrida insonlar Teshiktosh kabi g'orlarda asosan daraxt shoxlari va poxoldan ishlangan konussimon joylarda yashab kelganlar. Aholining bir qismi ko'chmanchilikdan o'troqlikka o'tgach, tosh, guvala, paxsa va sinchli uylar qura boshladi. Bronza davrida O'zbekiston xududining janubida joylashan Sopoltepada murakkab me'morchilik ansambilari vujudga keldi.

Ilk Temur davriga kelib esa to'g'ri to'rtburchak va aylana tarhli qal'achalar bunyod qilina boshlandi. Masalan, miloddan avvalgi uchinchi asrlarda bunyod etilgan inshootlardan Qiziltepa va Bondixonatepa binolari to'g'ri turtburchak tarzda qurilgan bo'lsa, Kuchuktepa va Qo'yqirilgan qal'alar esa aylana tarzida bunyod etilgan. Grek-Baqtriya va Qo'qon podshohliklari davrida qurilgan saroylar yanada hashamatli va yanada murakkab kompozistiyaga ega bo`lgan bo'lib, markaziy zali yoki hovlisi turli maqsadlarga xizmat qiladigan ko'p sonli binolar bilan o'ralgan, bino fasadlariga ko'p sonli ustunli ayvonlarga tutash qilib qurilgan. "Surxondaryo" Vohasida Yumaloqtepa qaridan topilgan (eramizning V-VI asrlariga oid) yog'och o`ymakorligi san'atining namunalari e'tiborga molikdir. Bundan bir yarim ming yilcha muqaddam mazkur joyda mahalliy hukumdar hukumdarlik qilgan. Mutaxassislar bu joyda ulkan san'atga daxldor naqsh o`ymakorligi bo`lganligini qayd etmoqdalar. Bu yangilik diyorimizda yog'och o`ymakorligi san'atining ancha oldindan rivojlanganligini isbotlaydi". Ko'rinish turibdiki,O'rta Osiyoda, shu jumladan Respublikamiz hududida ham IX-XI

asrlarga kelib madaniyat yana o'sa boshladi. IX asrda Samarqandning o'zi mustaqil davlat bulib qolishi madaniyat va san'at rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu esa xalq madaniyatiga yangi burilish yasashga olib keldi. Shu davrga kelib Abu Ali Ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Rayxon Beruniy, Muxammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar, adabiyot va madaniyat arboblari etishib chiqdi. Bu kabi allomalarining o'tkir zehni Buxoradagi Ismoil Samoniy maqbarasi, Termizdag'i qirqqiz saroyi, Navoiy tumanidagi Mirsaid Bahrom maqbarasi, Navoiy shahri yaqinidagi Sulton Saodat ansambli va Raboti Malik karvon saroyi singari jahonga mashhur bo'lgan me'morchilik yodgorliklarini qurilishiga olib keldi. Shular va shu kabi asori-atiqlar o'sha davrlarda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarilganligini, ular badiiy hunarmandlar tomonidan jozibador qilib bezatilganligini ko'rsatadi. Ilk o'rta asrlarda saroylar shahar qal'asidan tashqarida qurilgan bo'lsa, X asrlarga kelib shahar tarkibida qurila boshlandi. Buxorada qal'a oldida, Urganchda shaharning bosh maydonida, Samarqandda esa shahristonda shunday binolar bunyod etildi. Saroy memoriligida yog'och konstrukturalaridan keng foydalanildi. Madaniyat rivojlanib borar ekan, ajoyib me'morchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan, o'z-o'zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashda, shu jumladan, darvoza, ustun va ravoqlari yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa yog'och o'ymakorligini tez sur'atlar bilan o'sib borishiga imkon yaratib beradi. Monemuntal me'morchilikda yog'och o'ymakorligi an'anaviy san'at turiga aylanib bordi. Kishini hayratga soluvchi va o'ta nafis, tabiiy qilib ishlangan yog'och o'ymakorligi namunasi XII asrga tegishli bo'lib, u Samarqanddag'i Shohi Zinda devori orasidan topilganligini so'zimiz isboti sifatida aytib o'tishimiz mumkin. Shohi Zinda ansambl Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora madrasadan iborat. Shohi Zinda ansambl tarixiga kiruvchi eng qadimiy binolardan biri bo'lib, XI asrda bunyod etilgan. Shu davrda mazkur maqbara yonida masjid, minora, Tamg'och Bug'roxon madrasasi, Ziyoratxona va uning tagida chillaxona qad rostlagan. Ansambl bir-biri bilan yulak orqali bog'langan uch guruh binolardan iborat:

- Quyi guruhdagi binolar: Ulug’bek o’g’li nomidan qurdirgan Abdulaziz chorbog’i, unga shimoldan Davlat qushbegi madrasasi tutash, uning qarshisidagi ayvonli masjid naqshinkor qilib nafis bezaklar bilan bezatilgan. 40 bosqichli tik zinapoya o’rtalig’ining chap tomonidan ziyoratxona va qabristontondan iborat qo’shgumbazli maqbara joylashgan.
- O’rta guruhdagi binolar: Amirzoda maqbarasi, Tug’li Tekin maqbarasi, Shirinbeka oqo maqbarasi, uning qarshisidagi Amir Temurning boshqa singlisi Turkon oqo maqbarasi, sakkiz qirrali maqbara, Ali Nafasiy maqbarasi kabi masjid va madrasalar mavjud.
- Yuqori guruhdagi binolar: Ziyoratxona, uch qismdan ibrarat masjid, Xo’ja Ahmad maqbarasi, Tuman oqo kompleksi, yana 2 ta nomsiz maqbaraning kiraverish devorigina saqlanib qolgan xolos. Bundan tashqari Tamg’och Bug’roxon madrasasi, Amir Burundiq maqbarasi va boshqa masjid, madrasa, xonaqoxlar kiradi.

Ansambl tarkibida 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan. XIX-XX asr boshlarida ansamblning yana bir necha binolari barpo etilgan. XVIII asrda vayron bo’lgan zina o’rnida keyinchalik 40 pog’onali g’ishtdin yangi zina qurilgan. Fan va madaniyat, adabiyot va san’atning rivojlanib borishi buyuk sarkarda Amir Temur nomi bilan chambarchas bog’liqdir. U hukumronlik qilgan davrlarda me’morchilik bilan bir qatorda amaliy bezak san’ati ham yuksala bordi. U o’zi qurdirgan maqbara masjid, madrasa, xonaqoh va timlarni yog’och o’ymakorligi, ganchkorlik, naqqoshlik va koshinkorlik bilan jozibador qilib bezatdi.

XVI asrning oxiriga kelib Samarqandda o’ziga xos me’morchilik uslubi shakllandi. Oqsaroy, Ko’k Gumbaz, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Saidxon, Xazrat Imom masjidi, Jahongir maqbarasi, Dor ut-tilovat, Dor us-siyosat va boshqa shular kabi me’morchilik yodgorliklari o’zining monumentalligi, jozibadorligi, naqqoshlik va o’ymakorlik san’atining o’ziga xosligi bilan hamon diqqatga sazovordir.

Amir Temur davrida Samarqandni balandligi 8 metrgacha bo'lgan devor bilan aylantirildi. Shaharni kesib o'tadigan Buxoro-Farg'onan yo'lini kengaytirib savdo rastalari, timlar qurdirdi. U o'zi istilo qilgan o'lkalardagi eng ulkan me'mor va hunarmandlarni Samarqandga olib kelishi shaharda hunarmandlarning guzar va mahallalarini vujudga keltira boshladi: Bu esa san'atning yana gurkirab rivojlanishiga, yirik-yirik shaharlarda arxetektura ansambllarini, Buxorodagi Labihovuz ansamblini vujudga kelishiga zamin yaratdi. Shu va shunaqa asoruatiqalar an'anaviy tarzda pishiq g'ishdan bunyod etilgan, ansambllarning ichki va tashqi bezaklariga ham zo'r e'tibor berilib, san'atning keng ko'lamda rivojlanib borayotgan koshin, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan jozibdor qilib bezatildi.

Amir Temur o'zi quadirgan imoratlarni o'zgacha bir mehr, o'zgacha bir ishtiyoq bilan qudirganki, buni Samarqand va Qashqadaryo vohasini bir-biridan ajratib turuvchi Turkiston tog' tizmalarida bunyod etilgan Oqsaroy me'morchilik yodgorligi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu obida 20 yil davomida qurilgan bo'lib, ko'kka viqor bilan qad rostlab turibdi. Oqsaroy ikkita yirik ravoqdan iborat va ravoqlar 38 metr dan so'ng qubba shaklida birlashtirilgan. Har ikki arkning oralig'i 22,5 metrni tashkil etadi.

XVI-XVII asrlarga kelib me'morchilikda inshootlarning ko'rinishilari yanada takomillashdi, monemuntal binolarning tarhi, qiyofasiga o'zgartirishlar kiritildi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Shu davrlarda bunyod etilgan Mir Arab madrasasi, Chashmai-Ayub, Xo'ja Zayniddin masjid-xonaqosi, Chorbakir minorasi, Sherdor madrasasi, Gavkushon minorasi, Buxoro va Toshkentda bunyod etilgan Ko'kaldosh madrasalarida o'sha davr yog'och o'ymakorligining ajoyib namunalari o'z aksini topgan.

Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasi XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon II ning sarkardasi Qulbobo Ko'kaldosh tashabbusi bilan bunyod etilgan. Madrasining old peshtoq ravoqidagi girih va naqshlarida nafs va jozibador qilib yog'och o'ymakorlik san'ati bilan ishlangan. Hovlidagi peshtoqlar koshin va sirlangan g'isht bilan bezatilgan. Hovli atrofida ikki qavatlari 160 xujra va darsxona hamda masjid joylashgan. Tuzilishi jihatidan boshqa madrasalardan farqli o'laroq

madrasaning ochiq ayvonli bolxonalari bo'lgan va ular turli naqshu-nigorlar bilan nafis qilib bezatilgan.

Toshkent shahridagi Ko'kaldosh madrasasi ham XVI asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan bo'lib, Toshkent hokimi Ko'kaldosh qurdirgan. Madrasaning umumiy ko'rinishi janubga qaratib qurilgan. Peshtoqi sirlanganan g'isht va girih naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, ikki yoniga ikki qavatli xonalar tartib bilan joylashtirilgan. Darvozaxonaning chap tomonida darsxona, o'ng tomonida masjid joylashgan. Darsxona va masjid chortoq tarhli, poydevori va devorlari pishiq g'ishtdan, choklari ganch qorishmasi bilan pardozlangan. XVIII-XIX asrlarda monemuntal binolarning ayniqsa ichki qismi koshin, tosh, yog'och o'ymakorligi bilan bezash davom etdi. Shu davrlarda Norbutabiy madrasasi XVIII asrning oxirida bunyod etildi. Dxaman Shohon ansambli 3 qismdan iborat:

- peshtoq,
- 2 ustunli ayvon-masjid,
- Norbo'tabiy va uning avlodlari daxmasi.

Uning yaqinida xonning onasi maqbarasi – Modarixon daxmasi saqlangan. Peshtoqli, gumbazli bu binolar sirlanganan g'isht, koshin bilan bezatilgan.

Qo'qon Jo'me masjidi XIX asr boshlarida bunyod etilgan bo'lib, Umar nomi bilan chambarchas bog'liq. Masjid ulkan xonaqoh va uch tomoni 98ta yog'och ustunli keng ayvondan iborat bo'lib, ayvon shipi to'sinlari islamiy va girih naqshlari bilan, devorlari ganch o'ymakorligi bilan, izoralari "chaspak" uslubida bezatilgan. Ustunlari go'zal va nafis naqshu- nigorlar bilan o'yma bezak berilgan bo'lib, kursisi marmardan ishlangan Masjidning yonidagi minora konus shaklda bo'lib, tepasi olti qirrali qafasa-tuynuk va qubba bilan tugallangan. Yuqoriga aylanma zina orqali chiqiladi.

Xudayorxon o'rda shaharning muhim arxitektura yodgorliklaridan, ko'p ustunli qilib qurilgan, bo'yama va o'yma naqshlar bilan jozibador qilib bezatilgan jom'e masjidi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida qurilgan. 1914 yilda esa Komil qozi madrasasi bunyod etildi. XVIII-XX asrlarda yana bir qator asori-atiqalar qad rostladi. Namangandagi Xo'jamning qabri, Buxoroda Bolohovuz

masjidi, Xivada Olloqulixon karvon saroyi va timi, Toshhovli, Nurillaboy saroyi, Pahlavon Maxmud maqbarasi, Buxoro yaqinida Sitorai Mohi Xosa saroyi buniyod etildi. Saroy qurilishida halq me'morchiligi kompozistiya usullaridan foydalanildi. Bunda ichki hovli, hovuz, ko'p ustunli ayvon va sinchli imoratlardan tashkil topdi.

Xiva Jum'a masjidi XVIII asrning oxirlarida buniyod etilgan bo'lib, masjid va minoradan iborat. Masjid tomi tekis, bir qavatli, shifti o'yma naqshli. Ustunlar masjid qurilishiga moslab joylashtirilgan bo'lib, kaltaroqlariga tosh moy ustun o'rnatilgan. Devorlari ravoqlarga bo'linib, mehrob ishlangan. Mehrobning yuqorisini to'rsimon, o'yma zanjiri va kundal naqshlari bilan bezatilgan. Masjidga 214 ta ustun o'rnatilgan bo'lib, Xorazm xalq o'ymakorligining boy ijodiy imkoniyatlaridan keng-ko'lamda foydalanib, ustunlarga nafis naqshu-nigorlar bilan ishlov berilgan.

XVIII-XIX asrlarda Buxoroda buniyod etilgan Xalifa Xudoydod majmuasi madrasa, masjid, sardoba va qabristondan iborat bo'lib, hovlisining uch tomoni bir qavatli hujralar bilan o'ralgan. Masjid to'g'ri to'trburchak tarzida, gumbaz bilan qoplangan. Umumiy ko'rinishi ganch o'ymakorligi bilan, ustunlari esa o'yma naqshu-nigorlar bilan jozibador va nafis qilib bezatilgan. Sardobaga ikki zinapoya orqali kiriladi. Hovlining shimolidan qabristonga o'tiladi. Xalifa Xudoydod qabri yaqinida ikki ustunli, shipi bo'yama naqsh bilan bezatilgan ayvon bor. XX asr boshlariga kelib Qo'qonda yana bir majmua qad rostladi. Bu Xalifa Tillo majmuasi bo'lib, u ikki hovli, hovuzli bog', masjid va Xalifa Tillo dahmasi joylashgan qabristondan iborat. Ular o'rtasida chegara sifatida ikki qator ustunli shiypon joylashgan Xalifa Tillo dahmasi atrofi ravoqli to'sinlar bilan berkitilgan. Do'stu xudo masjidi Alixon eshon buyurtmasiga asson o'sha davrning etuk ustalaridan biri usta Yoqub boshchiligida qurilgan Tarhi teng tomonli, ustunli xona hamda ikki tomoni ayvondan iborat. Ayvonning shipidagi to'sinlari va ustunlari serhasham qilib did bilan turli naqshu-nigorlar bilan bezatilgan.

Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa saroy bog'i XIX-XX asrlarda buniyod etilib, mang'itlar silolasining to'rt avlodiga, ya'ni Nasrullaxon, Muzaffarxon, Abdulahadxon, Amir Olimxonlarga mansub. Saroyning maydoni taxminan, 6,7 ga

teng bo'lib, eski saroy g'isht to'shalgan 3 hovlidan va ko'pgina xonalardan iborat. Amir Muzaffarxon mehmonxonasi o'zining kengligi, baland zali, ikki tomondagi boloxonali ayvonlari, evropa uslubidagi eshik va derazalari bilan ajralib turadi. Uch qismga bo'lingan to'rtburchak tarhli Abdulahatxon saroyining ikki xonasi bir-biriga qarama-qarshi joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan. Eski saroy sharqdagi Amir Olimxonning bosh qarorgohi – yangi saroyga muhtasham ravoqli ikki tabaqali darvoza orqali kiriladi. Ushbu ikki tabaqali darvoza yog'och o'ymakorligining o'sha davrdagi eng so'nggi bezak usullari bilan go'zal, ko'r kam va nafis qilib bezatilgan. Darvozaxonadan tashqari hovliga o'tilib, hovlining uch tomoni ayvon bilan o'ralgan. Darvozadan kirishning o'ng qo'l tomonida kichkina favvora bor. Hovlining shimolida katta ayvon, g'arbida oqsaroy, janubida oynabandli ayvon, kutish xonasi va amirning qabulxonasi joylashgan. Oqsaroy bezagida sharq va evropa me'morchiligi uyg'unlashtirilgan holda qo'llangan. Bog'o'rtasida sakkiz xonali ko'shk bor. Umuman olganda Sitorai Mohi Xosa saroy bog'i zo'r mahorat va yuksak did bilan bunyod qilingan darvoza, eshik va ustunlarni bezashda yog'och o'ymakorligidan unumli foydalinilgan. Amaliy bezak san'atining bir qator turlarida mahalliy uslublar shakllanadi. Naqqoshlikda, ganch va yog'och o'ymakorligida islimiyl naqshi rivoj topdi.

Yog'och o'ymakorligida o'ymalarni bajarishning yangidan-yangi uslublari bilan ustunlar, eshiklar, ravoqlar va boshqalar jozibador qilib bezatilgan. Asrimizning boshlariga kelib Xivadagi ko'xna Ark, Toshhovli, Nurillaboy, buxorodagi Minorai Kalon, Ismoil Samoniy maqbarasi, Samarqanddagi Sherdor, Tilloqori madrasalari ta'mirlandi, Ulug'bek madrasasining qulay boshlangan minorasi qayta tiklandi.

Samarqandda joylashgan mazkur uch madrasa Registon maydonida qurilgan bir butun me'moriy yodgorliklar komlpeksini tashkil qiladi. Har uch madrasaga alohida ikki tabaqali darvozalardan kirilib, o'ziga xos yog'och o'ymakorlik san'ati bilan jozibador qilib bezatilgan. Xonaga kirish eshiklari, jumladan Sherdor madrasasidagi 54 ta xujra bulib deyarli barcha eshik taxtalari yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan.

Samarqand shahrida bunyod etilgan me'moriy obidalardan yana biri Hazrati Xizr masjidi XIX asr o'rtalarida qurilgan. Bino qadimiy masjid poydevori ustiga qurilgan bo'lib, bosh ko'rinishidagi tik zinapoyadan darvozaxonaga chiqib, uncha katta bo'lмаган xonaga o'tiladi. Chapdagi ravoqli peshayvon jazibador naqshlar bilan serhasham qilib bezatilgan. Old tomonida yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan 5 ta ustunli ayvon bulib, undan xonaqoxga eshik ochilgan. Xonaqoxning ikki yonida hujralar bor. Keyinchalik binoga, ya'ni 1891yillardan qo'shimcha ayvon va 1919 yilda darvozaxona qurilib ajoyib naqshu-nigorlar bilan bezatilgan.

Madaniyat rivojlanib borar ekan, ajoyib memorchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan o'z-o'zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashdi, shu jumladan darvoza, eshik, ustun va ravoqlari yoq'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa yoq'och o'ymakorligini tez suratlar bilan o'sib borishiga imkon yaratib berdi. ymakor ustalar bulardan tashqari uy-ro'zo'or buyumlarini bezashda ham o'z sanatlarini mohirona namoyish etishdi. Ustalar tomonidan turli xil stollar, kursilar, xontaxtalar, laganlar, lauxlar, sandiqlar, qutichalar, qalamdonlar va hakkazolar yaratildi.

Chingizzon bosqinchiligi tufayli XIII asrga kelib madaniy hayot izdan chiqdi. o'rta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx va Mavr kabi bir qator shaharlar Chingizzon boshchilik qilgan mo'o'il bosqinchlari tomonidan ostin-ustin qilib tashlandi.

Bu vayronagarchiliklarga XIV asming ikkinchi yarmida oqsoq Jahongir Amir Temur o'rta Osiyo xalqlarini birlashtirish orqali, chek qo'ydi va xalqimizning madaniyati, sanati, shu jumladan, yoq'och o'ymakorligining rivojiga o'zi qurdirgan obidalari, asori-atiqalari bilan o'z hissasini qo'shdi. Samarqandga yirik-yirik sanatkorlar, shoimu ulamolarni, hunarmandu ustalarni to'plab ko'plab jome masjidlari, madrasalar, xonaqohonlar, saroylar va boshqa ulkan inshootlar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar o'rtasida bo'lgan o'zaro to'qnashuvlar tufayli madaniyat rivojiga salbiy tasirini o'tkazdi.

XVI asrda arxitektura inshootlarining ko'rinishi yanada takomillashdi, ko'plab jamoat binolari, karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, shaharlarda

hammom, tim va boshqa savdo rastalari qo'rila boshlandi. Monumental binolarning tarhi, qiyofalariga o'zgartirishlar kiritildi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Jome masjidlari saroy tipida serhasham qilib qurildi, guzar va mahallalardagi masjidlar qishlik va yozlik qilib qurilib, katta ayvonlar, o'yma ustunli va eshiklari ham o'yma bezaklar bilan bezatildi.

XVII asrda kelib o'rta Osiyoda avj olgan o'zaro feodal nizo va urushlar Eronning Xivaga qilgan hujumi va boshqalar arxitektura va badiiy hunarmandchilikka salbiy tasir ko'rsatdi. Ko'pgina musavvir va hunarmandlar hindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur bo'ldilar. XVII asr oxirlariga kelib memorchilik va amaliy bezak sanati rivojlana boshladi. Saroy qurilishlarida xalq memorchiligi kompozistiya uslublaridan foydalanib, ichkari hovli, hovuz ko'p ustunli ayvon, sinchli imoratlar qurila boshlandi. XVIII-XIX asrlarda binolarning ayniqsa, ichki qismini koshin, tosh, ganch va yoq'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bulardan misol qilib, Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi, Buxorodagi Chorminor qo'qondagi Dahmai shohon asori atiqalarini keltirishimiz mumkin.

Asrimizga qadar sanat asarlari turli qiro'inbarotlar tufayli vayronalar ostida qolgan bo'lsa, asrimizda "qizil ko'lanka" ostida qoldi. Xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni ro'kach qilib qatao'on qilishdi. hunarmand ustalarni esa shaxsiy boylik orttirishida ayblab faoliyatları to'xtatib qo'yildi. Biroq xalqimizning fidoyi farzanlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirxamid Yunusov, Shamsiddin o'furov, Yunus Ali Musaev, Usmon Ikromov, quli Jalilov, Sulaymon Xo'jaev, haydar Najmiddinov, Toshpo'lat Arslonqulov, Maqsud qosimov, Mahmud Usmonov, Olimjon qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Maxmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, qodirjon Xaydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abduraxmonov va boshqa bir qator hunarmand ustalar o'zlarining hunar sirlarini maktabda va mакtabdan tashqari muassasalarda yoshlarga o'rgatishni yo'lga qo'ydilar.

## **1.2. Yog'och o'ymakorligi maktablari.**

Yog'och o'ymakorligining o'ziga xos turli uslub va usullari bor. Masalan, Xiva yog'och o'ymakorligi o'ymasining monumentalligi, yog'och tabiiy rangining saqlab qolishi bilan boshqalardan farqlanadi.

Buxoro yog'och o'ymakorligi esa o'yma naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarni oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajralib turadi.

Marg'ilon yog'och o'ymakorligi chuqur zaminli yassi o'ymani qo'llab kelganlar.

Qo'qon o'ymakorligi esa kalta bo'rtmali, yassi o'yma ishlatganlar. Toshkentda esa naqsh bilan qoplangan yassi bo'rtmali, zaminsiz chizma yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan. yog'och o'ymakorligi maktablari taxminan 40—50 yillardan keyin paydo bo'lgan. Jumhuriyatimizda Qo'qon, Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent maktablari mavjud.

### **Toshkent yog'och o'ymakorlik maktabi.**

Bu mактабга mansub ustalar o'yma naqshlarni 1—2 qavat qilib o'yadilar, keyingi vaqtarda esa 3 qavatli o'ymalar bajarishga o'tmoqdalar. Kompozistiya jihatidan o'rtacha chuqurlikda o'yib, o'simliksimon, geometrik, gulli girih, hattoki ramziy naqshlar bajaradilar. Pardozning hamma turlarini qo'llaydilar. Ular ko'pincha yong'oq, chinor, buk yog'ochlarini ishlatadilar. Toshkent ustalari relief yuzasiga ozgina rang berib, relefni o'zi loklanadi. Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabi namoyandalaridan biri Sulaymon Xo'jaev, u faqat pargori naqshni ishlagan. Uning shogirdi Maqsud Qosimov birinchi bo'lib pargoriy naqshni tekis yuzesi islimiyl naqsh o'ymaga kiritgan. Maqsud Qosmovning shogirdlaridan biri O. Fayzullaez mактабning rivojiga katta hissa qo'shib juda ko'p shogirdlar etishtirmoqda.

Sulaymon Xo'jaev 1866 yili Toshkentdagи naqsh soluvchilar va duradgorlar yashaydigan Suzuk ota mahallasidagi duradgor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Nasrulloxo'ja panjara va duradgorlikni ota-bobosidan meros qilib olgan edi. Sulaymon yoshligidanoq yog'och o'ymakorligiga qiziqar, nozik san'at sirlarini

o'rganishga harakat qilar edi. U diniy mактабда o'qib yurgan kezlarida otasiga yordam berardi. Keyinchalik u 17 yoshida usta Iskandar Mirzayoqubov ustaxonasida ishladi. U 1891 yilda yog'och o'ymakorligi pargori ustalaridan biri Toshpo'lat Ayubxo'jaevga shogird tushib yog'och o'ymakorligining sir asrorlarini o'rgandi. Pargori bu yog'och o'ymakorligini bir turi bo'lib, o'ymaning chуqurligi 1—1,5 mm dan oshmaydi. Bu naqshlarni «o'ymakor pargori» yoki «o'yma pargor» bilan, ya'ni stirkul bilan chizilgan naqshni o'yib ishslash deyiladi.

Sulaymon ustozini hurmat qilar, qiyinchiliklarni sabrchedam hamda o'ta mehnatsevarligi bilan engib, haqiqiy usta bo'lishga astoydil harakat qilardi. Keksa ustoz Toshpo'lat Ayubxo'jaev vafot etgach, uning san'atini davom ettirdi. Ustozdan esdalik bo'lib qolgan hamma asboblar yordamida Sulaymon o'zi mustaqil juda ko'p duradgorlik ishlari derazalar, eshiklar, darpardalar yasadi.

Sulaymon Xo'jaev asta-sekin har xil buyurtmalar olib bajara boshladи. U ko'pincha duradgorlik ishlari bilan shug'ullanar, ya'ni eshik, rom, xontaxta va boshqalar yasardi. Uning ijodiy ishini rivoj topishida rafiqasi Sharofat Otaxo'jaeva yordam berdi. Sharofat Otaxo'jaeva o'zi ham yog'och o'ymakorligiga qiziqar edi, chunki uning otasi ham yog'och o'ymakor usta bo'lган edi. O'sha vaqtarda, ya'ni XIX asrning boshlarida olti, sakkiz, qirrali xontaxtalar mayda buyumlar ishlab chiqarishga ehtiyoj juda katta edi. Usta yasagan ishlarini mohirlik bilan bejirim qilib bezar edi.

S. Xo'jaev tojik, fors, turk va arab tillarini yaxshi bilar juda ko'p kitoblar mutolaa qilar edi. U sayohat qilishni yoqtirar edi. Usta 1909 yili Turkiyaga va Arabistonga bordi. Makkani ziyorat qilish bilan birga chet ellardagi xalqlarni hayoti va san'ati bilan tanishishga harakat qildi.

1913 yili Toshkentdagи rus duradgorlari bilan tanishdi va ular maslahati bilan o'zining naqshlangan kursichasi va qush qafasi bilan SanktPeterburgdagи Butunrossiya kasblari ko'rgazmasida qatnashdi. Ana shu qilgan ajoyib ishlari uchun «Za poleznye trudy» bronza medali va diplomi bilan taqdirlandi.

U o'z shogirdlari bilan ajoyib o'ymakorlik ishlarini bajardi. Usta Sulaymon Xo'jaev o'z hunari sirasrorlarini kelasi avlodga o'rgatishda mehnatini ayamadi. U

Toshkentning o'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida o'ymakorlik san'ati bo'yicha instruktoro'qituvchi bo'lib ishladi, 1935 yili Toshkent shahar xalq maorifi bo'limi huzuridagi to'garaklarga rahbarlik qildi. Shu bilan bir aaqtida usta Toshkentdag'i to'qimachilik kombinatiking O'zbek xalq naqshlari asosida gul solinadigan srabrikada maslahatchirassom bo'lib ishladi. Sulaymon Xo'jaev o'zi ramka, qutichalar, stollar, etajerkalar, shkaflar va boshqa narsalarni o'zi yasardi. Ko'pincha yong'oq va chinor yog'ochlaridan foydalanardi, chunki bu yog'ochlar qattiq va pardoz berganda ajoyib ko'rinishga ega bo'ladi. Yuza o'ymada yorug'lik kontrasti katta rol o'ynaydi. Pargori naqsh kompozistiyasi ancha murakkab bo'lib, ustadan ko'p mehnat hamda sabrtoqatni talab qiladi.

Usta kerakli yuzaga qog'oz qiyib ustidan qalam, stirkul, chizg'ich yordamida naqsh kompozistiya chizar va shu chiziq bo'yicha o'yar edi. U naqshni o'yishda o'yma qalamdan foydalanar edi. Ustada 30—35 ta yog'och o'ymakorligining asosiy asbobi bo'lib, ular kichik yoki yirik naqshlarga qarab har xil o'lchamda bo'ladi.

Pargorida asosan 5 xil asbob ishlatiladi, ular naqsh kompozistiyalarini o'yib chiqish uchun «nova iskana» (yarim aylana shakldagi tiQli asbob) «baliq sirt», (tig'i yoy shaklidagi asbob) va «to'g'ri iskana» (keskichi to'g'ri tig'li asbob) asboblarda urib chiqiladi. yog'och yuzidagi qog'ozni ko'chirib tashlanadi. Keyin esa «zamin qalam» asbobida zamin o'yib chiqiladi va tekislanadi. Naqsh zaminini «gurzi» (tig'i mayda tishli bo'lgan asbob) bilan urib chiqiladi, ya'ni uni chakichlash deyiladi. Chakichlangan naqsh o'ziga xos tekis ko'rinishga ega bo'ladi. Chakichlashda gurzining tig'ini o'ymaga tik ushlab urib chiqiladi.

Usta naqsh kompozistiyasini bir kunda chizib tashlar edi. Katta bo'limgan o'yma buyum fonini olishga 2—3 kun ketkizar edi. Uyma uncha chuqr bo'lmasada u yorug' soyada yaxshi aniq ko'rinar edi. Ayniqsa gurzi bilan naqsh zaminini chakichlab lok berilganda o'ziga xos ko'rinish beradi. Usta naqsh andazalarini buyurtmachilarga yoki shogirdlariga esdalik uchun berib yuborar edi. Ana shunday ajoyib va juda ko'p naqsh andazalari san'at muzeyida saqlanmoqda. Bu andazalarni 1947 yili usta muzeyga taqdim etgan edi. Usta Sulaymon Xo'jaev

«laux» (kitob qo'yib o'qiydigan taglik) ishlash piri edi. Lauxni juda ko'p turlarini yasadi. Lauxni yasash san'atini o'sha paytda ustaning o'zi yaxshi bilar edi. Ustaning yog'och o'ymakorlik turi «pargori» uslubida shogirdi Maqsud Qosimov ijodiy ishlab rivojlantirdi. U islimiy naqshni o'yib ishladi. «Pargori» yog'och o'ymakorlik uslubida hozir hech kim ishlamay bu uslub rivojlanmay qoldi. Sulaymon Xo'jaev buyumga qoQozni elimlab keyin naqsh kompozistiya chizib o'ysa, Jo'qonlik ustalar naqshni to'g'ridanto'g'ri yog'ochni yuzasiga chizib o'yaverar edi.

Usta Sulaymon Xo'jaev o'zbek xalq bezak san'atining juda ko'p ko'rgazmalarida qatnashdi. 1923 yilda Rossiya qishloq xo'jaligi hunarmandchilik ko'rgazmasida 1927 yilda I xalqlari san'ati ko'rgazmasida 1 darajali diplom bilan taqdirlandi.

1930 yilda O'zning 5 yilligiga bag'ishlangan ko'rgazmada qatnashdi, 1937 yilda Parijda bo'lib o'tgan san'at va texnika ko'rgazmasida qatnashib yuksak baho oldi. Xo'jaev shogirdlaridan Muhammadvali Asqarov (1909—49), Maqsud Qosimov pargori naqshini ijodiy rivojlantirdilar hamda o'ziga xos yog'och o'ymakorligi maktablarini yaratdilar.

Maqsud Josimov 1905 yilda Toshkent shahrida kambag'al hunarmand oilasida dunyoga keldi. U o'n yoshida mакtabga borib besh yil ta'lim oldi. Maqsudning tog'asi Mirsoat Isamuhammedov duradgor edi. O'sha kezlarda tog'asiga yordam berib yurib duradgorlik kasbini o'rganib oladi. 16 yoshida Maqsud duradgor bo'lib ishlay boshladi. 1933—1934 yillarda hozirgi O'zbekiston Fanlar akademiyasining tarix muzeyida duradgor bo'lib ishlab yurganda o'ymakorlar, naqqoshlar, me'morlar bilan tanishdi. Bu tanishishi uning hayotdagij ijodiy yo'lini aniqlab berdi.

Tarix muzeyi milliy me'morlik an'analariga yuzaki yondashdi. Chunki o'sha vaqtda o'tmish merosidan tanqidiy foydalanish kerak degan noto'g'ri tushuncha ko'tarilgan edi. Shunga qaramay bu binoga har erdan xalq amaliy san'ati ustalari taklif etildi. Ular toshkentlik kulol usta M. Rahimov, T. Miralievlar, o'rategalik o'ymakor naqqosh usta Ashirov, G'ofurxo'jaev toshkentlik naqqosh Yoqubjon

Raufov, Jo'qonlik usta Abdurazzoq Abdurahmonov, toshkentlik naqqosh Abduvakil Isaev va boshqalar edi.

Muzeyning darvozasi yog'och o'ymakor naqqoshlar bilan ijodiy hamkorlikda bajarildi. Chap tabaqasining naqsh kompozistiyasini Equbjon Raufov chizmalari asosida o'rategalik yog'och o'ymakor Amir G'ofurxo'jaev bajardi. O'ng tabaqasini toshkentlik naqqosh Abduvakil Isaev naqsh chizmalari asosida Jo'qonlik yog'och o'ymakor usta Abdurazzoq Abdurahmonov bajardi. Maqsud aka shu yog'och o'ymakor usta Abdurazzoq Abdurahmonovga yordamlashdi. Mehribon usta Maqsudga dastlabki yog'och o'ymakorligi hunarini o'rgatdi. Maqsud yog'och o'ymakorligi bilan birga panjara san'atini ham chuqur o'rganib bordi. XIX asrda arxitektura binolarida panjara juda ko'p qo'llanilar edi. Maqsud qadimiy panjaralar bilan tanishdi va ularni yasash sirasrorlarini o'rgandi. Albatta bu juda og'ir ish edi. O'ymakor tarixiy panjaralarni o'rganar ekan, o'zi ham ajoyib panjaralar yaratdi. O'ning ajoyib ishlaridan namunalar hozirda O'zbekiston tasviriy san'at muzeyida saqlanmoqda.

1935 yilda Toshkentda hunarmandchilik o'quv ishlab chiqarish kombinati ochildi. Shu vaqtida yosh ustanning qobiliyati hvmda uning shu hunarga bo'lган qiziqishini sezgan muzey xodimlari Maqsud Qosimovni hunarmandchilik o'quvishlab chiqarish kombinatiga o'zbek xalq amaliybadiiy san'atini o'rganishga yubordilar. Tirishqoq, harakatchan va hunarga tashna Maqsud yog'ochga, tosh, metall va ganchga gul o'yishni ikki yilda o'rgandi.

1902 yilda Turkiston general gubernatorligining diplomatik chinovniklaridan biri N. A. Polovstevning buyurtmasi bilan qurilgan binoda o'quv kombinati joylashgan edi. Bu binoga hozirgi o'zbek xalq amaliy san'ati muzeyi joylashgan. Bu binoda juda baland ajoyib ustunlarning naqsh ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi hamda koshinkorlik namunalarini ko'rish mumkin. O'ndagi naqshlarning uzviylici, rangbarangligi, kompozition mukammalligi ajoyib bir bog'i eramni eslatadi. har bir naqshning elementida jon, go'zallik, xullas, bir san'at mujassamdir. Kishilar bu naqshlarni har qancha ko'rsalar ham hech zerikmaydilar. Aksincha, ular kishilarni yana ko'rishgga da'vat etadi. Qosimov naqsh nigoralarini

ko'rib yanada zavqlanib ulardan naqsh nusxalar olar, ularni tahrir qilar edi. har bir nusxa olgan naqshlardan ijodiy foydalanib o'nlab naqsh kompozistiyalar tuzar, undagi sirasrlarni o'rganar edi. ha, bino zallaridagi bezaklar xuddi yosh usta bilan tarix va san'at haqida gaplashayotganday tuyulardi. Qosimovning ruhini ko'tarib yanada yangiyangi ajoyib kompozistiyalar ijod qilishga ilhomlantirar edi. Bu o'quv kombinatiga O'zbekistonidagi xalst amaliy san'ati ustalariganchkorlar, yog'och o'ymakor ustalar, misgarlar, chitgarlar, kulollar va boshqa ko'plab ustalar taklif qilingan edi. Shular ichida naqqosh Olimjon Qosimjonov ham bor edi. Qosimov o'quvchilarga naqsh kompozistiya ishslashni, bo'yoq bilan ishslashni, yog'ochga gul solish va boshqa sirasrlarini o'rgatdi. Qosimovning bu ishida naqqosh Yoqubjon Raufov katta rol o'ynadi.

Toshkentlik Sulaymon Xo'jaev yog'och o'ymakorlik san'ati sirlarini o'rgatdi. Usta unga yog'och o'ymakorligining «pargori» usulini stolcha, quticha, lavha kursi va boshqalar yasashni hamda o'yib pardoz berishni o'rgatdi. Yana ulardan qanday foydalanish kerakligini, daraxtlarni oftob tushgan tomonini olishni, tiniq, zich va chiroyli bo'lishini o'rgatdi. Asboblarni qanday tayyorlash, ulardan foydalanish hamda saqlash qoidalarini o'rgatdi. Qosimovga ustozi pargori uslubda naqsh o'yishni mukammal o'rgatgan bo'lsada, uni ijodiy o'zlashtirib «islimi» usulida naqsh o'yishni rivojlantirdi. Islimi naqsh bu o'simliksimon naqsh elementlaridan tuzilgan bo'lib o'ziga xos o'suvchanlik xususiyatiga ega. Maqsud Qosimovning «islimi» naqsh usulini tanlashning sababi uni Qo'qonlik yog'och o'ymakor usta Abdurazzoq ijodidagi birbiri bilan silliq chirmashuvchi bandlardan iborat o'yma gullarning juda qiziqtirganligidir.

M. Qosimov o'ymakorligi yog'och yuzasining silliq o'yilishi, qirralarining o'tkir burchakliligi, o'ymaning chuqurligi 1,5—2 mm o'yilishi bilan xarakterlidir. Usta tayyorlangan yog'och buyumga naqsh o'ymoqchi bo'lsa avvalo yog'och yuzini yaxshilab tekislab oladi. Yuzaga mo'ljallab naqsh kompozistiyasi chizib uni axtasi tayyorlanadi. Axta orqali yog'och yuziga tushiriladi va shu nuqtanuqtalar o'chib ketmasligi uchun ustidan qalamda chizib chiqadi. Bu ishlatilgan axtani

ustalar doim saqlab keyingi ishlarida ijodiy foydalanganlar. Naqshning tarxi maxsus iskana bilan kesiladi. O'yilgan sath gurzi (chakich) bilan chakichlanadi.

M. Qosimov yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, tosh o'ymakorligi san'ati sirlarini o'rganishi bilan birga o'zi ham ijodiy stolchalar, panjaralar va boshqa narsalar ishladi.

Masalan, M. Qosimovning 1937 yili O'z San'at muzeyiga taqdim etgan 2 ta qutichalari o'ziga xos bajarilgan. Qutichalardagi o'ymalar toza, chiroyli va tekis o'yilgan. Naqsh kompozistiyasini tahlil qilsak, uchta zamonaviy elementlar o'roq va bolg'a, paxta, yulduz, besh qirrali paxta va boshqalar asosiy o'rinni egallagan. Bu naqshlar o'ziga xos badiiylik va zamonaviylikni aks ettiradi. Qutichani chetlari bofta shaklining takrorlanishidan hosil bo'lgan naqshlardan ishlangan. Taxtasi esa sirli buyoq bilan bo'yalgan.

Qosimov o'quv kombinatida toshkentlik mohir panjarasoz usta Nasriddin Ziyaqorievdan yog'och panjarani yasashni o'rgandi. yog'och panjarani yasash uchun avval randalangan mayda taxtachalar (terak yoki arg'uvon daraxtlar, yog'ochlar) so'ngra rom tayyorlanadi, keyin esa chizma bo'yicha hozirlangan taxtachalar shu rom ichiga qalab yoki yig'ib chiqiladi. Albatta bunday panjaralar yasash ustadan ko'p mehnat, mahorat va aniqlik talab kiladi. Panjara yasashda hech qanday shirach, mix ishlatilmaydi. Tayoqchalar yig'ib chiqilgandan so'ng to'rt tomonidan yog'och rom bilan mustahkamlanadi. M. Josimovni shu texnika asosida tayyorlangan panjaralari egri vosvos, suvora va boshqalar O'zbekiston san'at muzeyida saqlanmoqda.

O'zbek xalq ularining ko'p asrlar davomida yaratgan an'anaviy panjaralari mazmuni va shakliga qarab o'ziga xos nomlar bilan atalgan. Chunonchi «chor chashma», «suvora», «toqi», «uzma», «egri vosvos» va boshqalar.

M. Qosimov duradgorlik kasbini tog'asi Mirsoat Isamuhammedovdan, yog'och o'ymakorligini Jo'qonlik yog'och o'ylakor usta Abdurahmonov va toshkentlik yog'och o'ymakor usta Sulaymon Xo'jaevdan o'rgandi. Naqsh chizishni toshkentlik naqqosh Olimjon Qosimjonovdan va o'rategalik naqqosh

Yoqubjon Raufovdan, panjara yasashni Nasriddin Ziyaqorievdan, boshqa ustalardan esa ganch, metall, toshga naqsh o'yib ishslashni o'rgandi.

1937 yili o'qishni tugatgandan so'ng xalq ustalari qatori Moskvadagi Butunittifoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasining O'rta Osiyo pavilonlarini bezashda qatnashdi. O' oilasi bilan Moskvada uch yil yashab, Qirg'iziston pavilonini bezashda yog'och o'ymakorligi brigadasiga rahbarlik qildi. Ular ustun, eshik, gerb va boshqa narsalarni o'yib ishladilar, shiftlarni naqsh nigoralar bilan bezadi. M. Josimov Tojikiston va O'zbekiston pavilonida ganch o'ymakorligi bilan shuQullandi. U qirg'iz san'ati bilan yaqindan tanishganligi sababli uning ijodiga ijobiy ta'sir etdi. Usta naqsh o'yish va chizishda qirg'iz elementlarini o'zbek o'ymakorligida aks ettirdi. Bu esa o'ziga xos orginallikni baxsh etdi. U 1940 yili Bishkek shahridagi hunarmandchilik o'quv ishlab chiqarish kombinatiga ishga taklif qilinib nafis o'ymakorlik san'atidan yoshlarga dars berdi. Ikki yil davomida o'n beshta yog'och o'ymakor usta tayyorlab berdi. Qirg'iz milliy naqshlarini yaxshi bilar edi va o'zining naqsh kompozistiyalarini chizishda qird'iz naqsh elementlaridan yaxshi foydalandi. Uning qirg'iz aailliy naqsh motivlari asosida ajoyib sandiqchalar, qutichalar, ramka va boshqa narsalar ishlandi. Arxitektura yodgorliklarini qayta tiklashda hall o'z xizmatini ayamadi. Chunonchi, sobiq Polovstev uyi, ya'ni hozirgi xalq amaliy san'ati muzeyining asosiy binosini o'yma gulli eshik va ustunlarini qayta tikladi.

Ulug' Vatan urushi yillari Muqimiy nomli teatr binosini (ilgarigi Toshsovet teatri) qurish va bezash ishlari ketayotgan edi. Bunga O'zbekistonning turli viloyatlaridan ustalar taklif qilindi. Chunonchi Usta Shirin Murodov, Yusufali Musaev, Abdulla Boltaev, Shamsiddin Qofurov, Usmon Ikromov, Maqsud Qosimov va boshqalar taklif etilgan edi. Arxitektorlar D. Hazanov va S. Tixonov shu teatrning avtorlari edi.

M. Qosimov toshkentlik ganch o'ymakor va naqqoshlar brigadasiga boshchilik qildi. Rassomlar A. Nikolaev (usta Mo'min) va R. Akbalyan -rasmlar eskizini tuzdilar. M. Qosimov va uning ukasi ganchkor Xoji Qosimov hamda shogirdi Shonazar o'ulomov bilan birga uch ravoqli peshtoqning ichkarisida uchta

eshik va uning tepasidagi panjaralarni yasashdi. M. Qosimov eshiklarga an'anaviy holda o'sha davrga mos naqshlar ishladi. Uchta eshik ham birbiri bilan bog'langan bo'lib, bir butun ko'rinishga ega bo'ldi. Ishlangan eshiklarning ikki tabaqali konstrukstiyasi bir xil, har bir tabaqa uchta yirik diladai iborat. Har bir dila yuzasi ornamentli chorsi panno bilan qoplangan. Panno o'rtasida davra turunj bo'lib, atrofini band, barg va gullar to'qimasidan iborat simmetrik ornament o'rab turadi, tabaqalar o'rtasidagi dila ornamentida o'simliksimon va geometrik motivlar mohirlik bilan birlashtirilgan. Dilada ornamentning to'rt xil variantini uchratsakda, ular bir prinstip asosida tuzilgan: markaziy gulgin, davra turunj va uning atrofida tor hoshiyazanjira, xolos. Ikkala eshikdagi o'n ikkita dilada turlicha zanjira ishlatilgan. Dila va hoshiyalar turlicha bo'lishiga qaramay, har bir eshik bir butun kompozistiyaga aylangan. Eshiklar birbiridan asosan hoshiya ornamentlari bilan farq qiladi. Bir hoshiya barg va bandi pechaksimon «islimiyl yak raftor» dan iborat bo'lsa, ikkinchisi band va barglar to'qimasidan tashkil topgan, cho'ziqroq turunjlardan iborat murakkab «chor islimiyl» ornamentdir. Qosimov eshiklarni yasashda o'zbek xalq o'ymakorligi ornamentlarining turli ko'rinishlarini birlashtirib ishlagan. Usta asosan sayozroq (3—4 mm), mayda bo'rtmali, tik kesilgan va zamini chakichlangan o'yma usuldan foydalandi. Eshiklarning pastki dilasiga yirikroq ornament va hoshiyalarga «islimiyl yak raftor» ishlatilgan bo'lib, bo'rtma yuzasi esa qo'shimcha pardozlangan. Ingichka, nozik choklar tekis yuzali o'ymani yana ham ko'rkmamlashtirgan. Muqimiy nomli teatr eshiklari O'zbekistonning hozirgi monumental dekorativ san'atining ajoyib asarlaridan biridir.

1943—46 yillarda M. Qosimov Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri qurilishida ham qatnashib, u asosan ganchkorlik (qolipkorlik) ishlariga rahbarlik qildi.

1946 yili u o'g'li Ahmad bilan teatr tomosha zali uchun tayerlangan kreslolarga oddiy o'yma gul ishladi. Unda «sebarg», ya'ni uch bargdan iborat o'simliksimon naqsh ishladi. M. Josimov Uzxudpromsoyuzda ishlab yurgan

paytlarida ajoyib o'yma quticha, ramka, kursi, karniz va panjaralarga ajoyib naqsh kompozistiyalarini to'qiy olar edi.

Usta paxta chanog'i, gullar, g'unchalar va boshqa o'simliksimon naqsh elementlarini ko'p qo'llaganini ko'rish mumkin.

M. Qosimov 1944 yilda O'zbekiston Rassomlar uyushmasining a'zosi bo'ldi. Uning kursi, quticha, panjara va boshqa ishlari O'z Davlat va xalq amaliy san'ati muzeylarida saqlanyapti. 1953 yilda ustaning sakkiz va olti qirrali tollari juda chiroyli chiqqan. Ularni umumiyligi formasi Jo'qon va Toshkent ustalarining ishlaridan farq qiladi Ayniqsa bu stollarga rullagan ko'zacha islamiy juda jozibador, ta'sirchan chiqqan. Umuman naqsh kompozistiyadagi immetriya, aniqlik, muvozanatlik xususiyatlario'zbek milliy naqshlarida ko'rsata olgan.

Ustaning asarlari Samarstand, Toshkent, Moskva va Leningrad muzeylarida doimiy eksponatga aylanib qolgan.

Ortiq Fayzullaev. O'zbek xalq amaliy bezak san'atini rivojlantirib kelaetgan Toshkent mакtabida qator xalq ustalari ijod etmoqda. Bular orasida ayniqsa, naqqosh Anvar Ilhomov, Komiljon Karimov, ganchkor Mahmud Usmonov, Umar Tohirov, Zievuddin Yusupov, haet Abdullaev, Asror Muxtorov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1963), o'ymakor Ortiq Fayzullaev ham bor. 1952 yili Toshkentdagi P. P. Benkov badiiy bilim yurtining xalq amaliy san'ati bo'limiga kirib a'lo baholar bilan tugatdi. 1969 yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining -rasmchizmachilik bo'limini bitirdi. U bilim olish bilan bir qatorda o'z ijodiy ishi bilan xalqqa tanila boshladi.

O'ymakor rassom Toshkentda qurilayotgan eng yirik ma'muriy binolarning deyarli barchasida o'z ijodi bilan qatnashgan desak xato qilmaymiz. U jumhuriyatimizning adabiyot va san'at muzeyini, «Moviy gumbazlar» choyxonasini, Toshkentdagи san'at saroyini, «O'zbekiston» teploxfordining kafesini, Kislovodskiydagи «O'zbekiston» sanatoriysini, Parkent shahridagi Chotqol qo'riqxonasining tabiat muzeyini, Jarshi shahridagi, Toshkent mehmonxonasini, O'zbekiston mehmonxonasini va boshqa joylarni bezashda aktiv qatnashdi.

El tahsiniga sazovor asarlar yaratgan, mahoratli usta Ortiq Fayzullaev P. Benkov nomli jumhuriyat bilim yurtida o'qituvchilik qilib yurgan vaqtida o'z san'atining sirlarini yoshlarga sidqidildan o'rgatdi. Ustaning ta'lmini olgan Ergash Aliev, Abduvosiq Saydaliev, Rahim Malikov, Botir Qaniev, Mirza Nasmiddinov kabi ko'plab ustalar hozirning o'zidayoq ko'hna san'atning go'zal namunalarini yaratmoqdalar.

Ortiq Fayzullaevning ijodi 50yillarning ikkinchi yarmida P. Benkov nomidagi badiiy maktabni bitirish arafasida boshlandi. 1957 yili u O'zbekiston yoshlari festivali munosabati bilan ochilgan ko'rgazmada kursi, quticha va boshqa asarlar bilan qatnashib, ko'pchilik diqqatini o'ziga tortdi. Ana shu anjumanga taqdim etilgan «Jahonga tinchlik» pannosi uchun «Festival laureati» unvonini oldi.

50-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekistonda bu san'atni biladigan kamyob iste'dodlardan biri Maqsud Qosimov edi. Ortiq Fayzullaev o'qib yurgan kezlarida shu san'atni qunt bilan o'rganib, o'zining diplom ishini shu sohaga baQishladi. Xalq o'ymakorlik san'ati an'analari ruhida yaratilgan panjarali ko'chma parda (shirma) ko'pchilikning tahsiniga sazovor bo'ldi. Ortiq Fayzullaev panjara san'atida ijod qilishni o'qishni tugatgandan so'ng ham davom ettirdi. Ustozidan yo'lyo'riqlar olib bu sohada o'z bilimi va mahoratini yanada oshirdi. Usta 1959 yilda tengdoshlari A'zam Shokirov, hamidulla Rixsiev bilan ijodiy hamkorlikda ustoz M. Qosimov rahbarligida g'oyat murakkab besh pardali panjara yaratib, Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston san'ati va adabiyoti dekadasida muvaffaqiyatli qatnashdi.

Parda devor (shirma) ko'chma parda, xonani bo'lismi, ayirish uchun ishlatiladigan maxsus yig'ma to'siq. Parda devorni yog'ochdan (panjarali yoki bo'yoq naqshli) suyakdan boshqa materiallardan yasaladi. O'zbekistonda yog'ochdan panjara usulida va yog'ochga naqshni bo'yab ishlash usulida bajarilgan parda devorlar yaxshi rivojlangan. U qadimdan ishlatilib kelinayotgan xona johozi bo'lib, kishilarning kiyinishi uchun to'siq vazifasini o'tagan. Parda devorning ikkinchi turi deraza shirmsidir. U ko'pincha yog'och panjarali bo'ladi. U bir va undan ortiq, ko'pincha 5 va 3 tabaqali bo'ladi. Uzbekistonda parda devor

ustalari Nasriddin Ziyaqoriev, Ortiq Fayzullaev, Abduvosiq Saydaliev, Botir G'aniev va boshqalardir. Shirmaning ajoyib namunalari o'zbek xalq amaliy badiiy san'ati, tasviriy san'at kabi muzeylarda saqlanmoqda. Ortiq Fayzullaev panjara san'atining eng etuk ustalaridan biri. Uning ko'pgina panjaralari ittifoqimizdagi turli muzeylarning doimiy eksponatiga aylangan. San'atkor yaratgan asarlar badiiy etukligi, mazmunan teranligi, ishlash texnikasining yuksakligi bilan ajralib turadi. Masalan, usta 1962 yilda yaratgan uch tabaqali panjarali pardaga razm solaylik. Ko'chma parda yoki parda devorning har bir tabaqasi to'rt bo'lakka ajratilgan bo'lib, bularning uch bo'lagida panjara ishlatilgan.

Pardaning pastki qismidagi panjara to'rtburchakning murakkab qaytarilishi hisobiga qurilgan bo'lib, go'zal tabiat, gulzorni eslatadi. Pardaning yuqori qismi o'ziga xos ko'rinishga ega. Undagi ko'rinish, bepoyon osmonda charaqlab turgan yulduzlarni namoyish etganday bo'ladi. Panjara uchun oqish yog'och hamda chekkasi uchun birmuncha jigarrang yog'och tanlangan. Bu pardaning ko'rimliligini, emostional ta'sirini oshiradi.

Ortiq Fayzullaev o'ymakorlik san'atining xilmaxil janrlarini mukammal egallagan. Yog'ochga gul solish va naqsh ishslash ustuning sevimli mashQuloti. Uning bu sohada yaratgan ko'pgina ishlari hozirgi kunda ko'pgina yangi binolarni bezab turibdi. Bu jihatdan, «O'zbekiston» mehmonxonasi, «Moviy gumbaz» ishlari diqqatga sazovor. O. Fayzullaev o'z ijodida yog'och o'ymakorligining uzoq asrlik boy an'analaridan gkeng foydalandi. Lekin ularni aynan qaytarmay, zamonamiz ruhiga monand yangi jilo va bezaklar bilan boyitdi. O'zbekiston Vazirliklar kengashi bog'idagi yog'och o'ymakorligi ishlari, bir qarashda an'anaviy ispimiyl ishlarni eslatadi. Shu bilan birga undagi detallarning nisbatlari, chiziqlar o'ynoqiligi, ularning harakati oralig'iga naqsh uchun tanlangan chuqurlik, yirik detallar ritmikasining munosibligi asarga alohida joziba baxsh etgan. Ijodkorming an'anaviy naqsh o'ymakorligiga yangicha realistik detallarni kiritishga intilishi uning «xalq ustalari» va ayniqsa, «anor» naqsh kompozistiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. «Anor» kompozistiyasida

tasvirlangan er shoxi va undagi meva, qushlar tasviri ir tomondan real ko'rinishni ifodalasa, ikinchi tomondan, tasvirdagi shartlilik, afsoviylikka intilish butun kompozistiyaga alohida usn va joziba bag'ishlaydi.

Ortiq Fayzullaevning nozik didi, qalbi, chidam va matonati tufayli maydonga kelgan san'at durdonalari madaniyat koshonalari, istirohat maskanlarining husniga husn qo'shmoqda, qadimiy xalq san'ati bizning davrimizda obro' va e'tibor qozonishi mumkinligini isbotlamoqda.

San'atkor yaratgan nafis va takrorlanmas asarlar faqatgina mamlakatimiz va jumhuriyat muzeylaridagina emas, balki Yaponiya, Germaniya, Polsha, Turkiya, Finlyandiya kabi chet ellardagi xalqaro ko'rgazmalarda hall namoyish qilingan. O'ymakor O'zbekiston, jahon kitob ko'rgazmalarini badiiy bezashda qatnashdi. O. Fayzullaev hozirgacha hammasi bo'lib 80 dan ortiq ko'rgazmalarda ishtirok etganligi uning tinmay izlanayotganligidan dalolat berib turibdi.

### **Qo'qon va farg'ona yog'och o'ymakorligi maktabi**

Qo'qon ustalari quticha, kursi, rom va boshqalarda kalta bo'rtmali yassi o'ymani, ya'ni pargori uslubda ishlatib kelib, arxitekturada eshik, ustunlarga yirik chuqur naqshlar o'yib o'zgacha mакtab yaratdilar. Bu maktablar o'ymlarining monumentalligi, yirikligi, chuqurligi, ko'pqavatliligi bilan farq qiladi. Jo'qon yog'och o'ymakorligi maktabini rivojlantirishda Qodirjon haydarov va uning shogirdlari katta hissa qo'shdilar. Ular terak, yong'oq va buk yog'och materiallaridan ko'pincha foydalanadilar. Ustalar o'yilgan relefning faqat yuziga to'qroq rang berib keyin loklaydilar.

Marg'ilon yog'och o'ymakorlik maktabi o'ziga xos milliy ko'rinishga ega bo'lib, o'ymani chuqur zaminli yassi qo'llaydilar. Keyingi vaqtida marg'ilonlik ustalar binolarni yog'och o'ymakorligi bilan bezashda katta ishlar qildilar.

### **Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi**

Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda o'yma naqshlarning maydaligi, yuzaligi, zaminining kamligi, naqshlarning zichligi hamda badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi (harakatchanligi, dinamikaviyligi), ya'ni novdalarni spiralsimon ishlanib ajoyib shakllar hosil "qilishi bilan farq qiladi. Xiva

o'ymakorligi ustalari ko'pincha qayraQoch, terak va chinor yog'ochlarini ko'proq ishlataidilar. Ular yog'och rangining tabiiyligini saqlagan holda uning yuzasiga va zaminiga paxta, zig'ir yog'i beriladi. Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi o'zining monumentalligi bilan mashhurdir. Xiva naqshining go'zalligi, naqshlarni turli chuqurlikda o'yilishi orqali katta aniqlikka va uyg'unlikka erishishdadir. Ustalar yog'ochning tabiiy ko'rinishini saqlashga harakat qilib yangi o'yma yuzasini silliqlash, bo'yoq surtish ishlarini qo'llamaganlar. Ota Polvonov, Sapo Boqbekov va boshqalar Xiva maktabi ustalaridandir.

### **Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi.**

Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda o'ymalarining juda mayda o'yilishi, kompozistiyasining murakkabligi, ya'ni geometrik, o'simliksimon va gulli girih kompozistiyalari hamma zamin va releflarni loklashdan boshlanadi. Asosan chinor, dub, buk va terak yog'ochlari ishlatiladi. Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi namoyandalaridan Asatilla, M. Jumaboy, Abduhofiz Jalilov, Usta Nasrulla, Nurali Nazrullaev va boshqalardir.

### **Buxoro yog'och o'ymakorligi maktabi**

Buxoro yog'och o'ymakorligi esa o'yma naqshning jozibadorligi, jimmima naqshlarni oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajralib turadi.

Buxorolik yogoch o'ymakor, duradgor usta Sharif Saidov usta Shirin Murodov bilan birga hunar sirlarini o'rgangan. Buxoro amiri saroyida ishlagan, ko'plab jamoat binolaridan Bolohovuz masjidi, Sitorai Mohi Xosa va boshqa ko'plab majmualarni qurishda, Buxorodagi Mir Arab, Ko'kaldosh madrasalarini ta'mirlashda qatnashgan. Keyinchalik ko'plab jamoa xo'jaligi klublarini qurishda ishtirok etgan. Ko'plab shogirdlar taysrlagan.

Usta Sharif yogoch o'ymakorligida yuksak mahorat bilan bezab tayyorlagan ishlaridan namunalardan eshik va ustun Buxoro viloyat o'lakashunoslik muzeyida saqlanadi.

### **1.3. Mustakillik yillarida yog'och o'ymakorligining rivojlanishi.**

Bunyodkorlik — xalqimizga xos fazilat. Shu bois ajdodlarimizning bu jabg'adagi ilmu salog'iyati, boy an'ana va tajribalari asrlar osha dunyo ag'lini g'ayratga solib kelmoqda.

Qolaversa, keyingi yillarda yurtimizdag'i noyob tarixiy inshootlarning qurilishi g'amda bezaklarini o'rganish, tadqiq etishga qiziquvchilar soni tobora ko'payib borayotir. Bu esa ularni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga but-butun g'olda etkazish borasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi. O'z davrining puxta me'moriy echimlari asosida tiklangan osoriatiqalarga g'am vaqt o'tishi bilan qayta sayqal berish zarurati tuhiladi. Ushbu mashaqqatli yumushni amalga oshirishda esa usta, hunarmandlarimizning mag'orati, bilim va zeg'ni juda qo'l keladi.

Mustaqillik yillarida ularni asrab-avaylash yo'lida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan davrda qadriyatlarimizning ajralmas qismi sanalgan xalq amaliy san`atiga e`tibor kuchaydi. Hunarmandchilikning unutilayozgan ko'plab turlari qayta tiklandi. Sog'a vakillarini qo'llab-quvvatlash va rahbatlantirish tizimi shakllantirildi. — Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, — deydi Nasrullo Sog'ibnazarov. — Shu bois mamlakatimizda istiqlol yillarida moddiy va madaniy meros ob`ektlari davlatimiz mug'ofazasiga olindi. Ularni ta'mirlash mug'im vazifa sifatida belgilandi. Albatta, bunday e`tibordan faxrlanamiz. Qolaversa, barcha sog'a vakillari qatori hunar egalari g'am emin-erkin ishlaydigan davr keldi. Shu bois ayni damda yohoch o'ymakorligining noyob qirralarini shogirdlarimiga o'rgatishga g'arakat qilayapman.

“Meg'nat qilgan elda aziz”, deydi xalqimiz. 2002 yilda davlatimiz rag'bari Farmoniga asosan “O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni bilan taqdirlangan, mag'orat va iste`dodi xalqaro miqyosda e`tirof etilib, YUNESKOning maxsus sertifikatini qo'lga kiritgan Nasrullo Sog'ibnazarov ayni paytda g'am ijodiy izlanishda. Chunki uning yuragi shijoatga to'la. Zero, bunday kuch-quvvat, hayrat va ilg'om manbai istiqlolimizning bebag'o in'omlaridir.

O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi Nasrullo Sog'ibnazarov umrini ana shunday ezgu ishlarga baxshida etgan fidoyi insonlardan biri. U yohoch o'ymakorligi sog'asida o'ziga xos maktab yarata oldi. Ayniqsa, ko'g'na va navqiron Samarqand zaminidagi tarixiy obidalarni ta'mirlash jarayonida faol ishtirok etib, Registondagi Mirzo Ulubek, Xoja Ag'rор dag'asidagi Mug'ammad Nodir Devonbegi madrasalari, Amir Temur maqbarasi g'amda boshqa yodgorliklarning qayta chiroy va joziba kasb etishiga munosib g'issa qo'shdi. Qolaversa, Buxoro, Qarshi, Shag'risabz, Xivadagi moziydan meros inshootlar, Toshkentdagи "Xotira" maydoni, "Shag'idlar xiyoboni" ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan naqshinkor darvozayu ustunlar g'am uning mog'irona ijodi, betakror iste`dodi mag'sulidir.

Ustaning mo'jazgina xonadoni Samarqand tumanida joylashgan. 71 yoshni qarshilagan hunarmandning ijodxonasidan shogirdlari qadami uzilmaydi. Ularning soni 50 nafardan ziyod. Aksariyati esa shu erlik yoshlari. Qo'shni viloyatlardan kelib, hunar o'rghanuvchilar g'am ko'p. Quvonarlisi, o'hillari Samatillo va San`atillo ota izidan bordi. Qo'ligul usta bo'lib kamol topishdi. Olti nafar nabirasi esa ayni paytda Nasrullo akaga izdosh. Masalan, Amirjon — 21 yoshda. U to'rt yoshidan buyon bobosining yonida. 19 yoshli Yusufjon esa etti yoshligidan naqshlar chizadi. Sakkiz yoshli Sardorjon g'am bobosiga g'avas qilib, yohoch o'ymakorligi sir-sinoatlarini birmuncha o'zlashtirib olgan.

Mamlakatimizda yohoch o'ymakorligi xalq amaliy san`atining keng tarqalgan turlaridan biri g'isoblanadi. Bir necha asrlar avval shakllangan mazkur san`at rivoji mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 30 martda qabul qilingan "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash to'hrisida"gi farmoni bu borada mug'im omil bo'lmoqda.

Usta-hunarmandlarning g'ar tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, ularga turli imtiyozlarning berilishi xalqimiz turmush sharoitining ajralmas qismini tashkil etadigan mazkur xalq amaliy san`atining yangi davrini boshlab berdi. Hunarmandlar faoliyatini rahbatlantirish, ishlab chiqarishni takomillashtirish va

kengaytirish samarasida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun yangi ish o'rirlari yaratilayotir.

Toshkent viloyati Qibray tumanida istiqomat qiluvchi "Hunarmand" uyushmasi a'zosi Shavkat Yusupov ko'p yillardan buyon yohoch o'ymakorligi bilan shuhullanib keladi va uning mazkur hunari nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda g'am ma'lum va mashg'urdir.

Shavkatning aytishicha, u ushbu hunarni ko'plab ustalardan o'rgangan. Mazkur san`at turi sir-asrorlarini boshqa shogirdlarga nisbatan tezroq o'zlashtirgan. Biroq, yohochga naqsh solish va shakl berishda Shavkatning qo'li uncha kelishavermagan. U yohochni keragidan chuqurroq o'yib yuborar, ba'zan esa, g'atto qiyshiqroq o'yardi. Shavkat yoshlidan qat'iyatli edi, o'z mag'oratini oshirish borasida qattiq ishladi va kerakli natijaga erishdi. Bugungi kunda u yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritmoqda.

– Yohoch o'ymakorligi – o'ziga xos san`at turi bo'lib, mog'ir ustalar ishlagan noyob buyumlarni ko'rganda, biz ularning nafisligi va go'zalligidan g'ayratga tushamiz, – deydi Sh.Yusupov. – Men buni g'ar kuni o'z shogirdlarimga uqtiraman.

Hunarmandning ustaxonasidagi to'rtta tsex butun bir xalq hunarmandlik san`ati olamini o'zida mujassam etgan. Ustalar uch-to'rt yil mobaynida tabiiy sharoitlarda quritilgan chinor va yonhoq daraxtidan stol-stullar, qutichalarga bezaklar yasashadi, g'atto qush shaklini g'am yaratishadi. Bu o'ziga xos hoyalarni Shavkatga uning zargar akasi taklif etgan edi. Aka-ukalarning niyati – g'amkorlikda ishlab, mamlakatimizda jag'on standartlariga mos, ayni paytda milliy turmush tarzimizning o'ziga xosligini aks ettiradigan mebel ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Ular mebellarga tushiriladigan naqshlar doimo sharqona uslubda bo'lishini istaydi.

2009 yil tadbirkor Sh.Yusupov faoliyatida alog'ida o'rinni tutadi. Shu yili unga do'stlaridan biri "Tashabbus" ko'rik-tanlovida qatnashishni taklif etadi. Xalq amaliy san`atida tajribasi uncha katta emasligiga qaramay, u mazkur tanlovda o'z kuchini sinab ko'rishga qaror qiladi. Hozir u bundan sira g'am afsuslanmaydi,

chunki “Tashabbus”da ishtirok etishi unga ko’plab muvaffaqiyatlar eshigini ochdi. Xususan, 2011 va 2012 yillarda Shavkat mazkur tanloving Toshkent viloyati bosqichida “Milliy hunarmandchilik” nominatsiyasi bo'yicha holib deb topildi. G'ozirgi kunda u ishlagan buyumlar mamlakatimiz va xorijiy ko'rgazma stendlarini bezab turibdi. Oldinda esa, uni yangi muvaffaqiyatlar kutmoqda.

Atrofdagilar bilan tez kirishib ketish, omilkorlik va tavakkal qila bilish – zamonaviy tadbirkorning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Bu tamoyillarga amal qilgan hunarmand bugun yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ko'plab yutuqlarga erishdi. U shuning o'zi bilan kifoyalanib qolishni istamaydi. Tadbirkorning milliy hunarmandchilik mifik tabini ochish biznes-loyig'asi bank tomonidan 100 million so'm mablah bilan moliyalashtirildi.

Qibray tumanida kasb-hunar kollejlari va umumiyo'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarini yohoch o'ymakorligiga o'rgatadigan maktab ochishni mo'ljallamoqdamiz, – deydi Sh.Yusupov. – Yuz nafardan ortiq o'quvchiga mo'ljallangan maktabda o'qish muddati 6 oyni tashkil etadi, bunda kam ta'minlangan oilalar farzandlariga alog'ida e'tibor qaratiladi. O'qishni yakunlagan yoshlarga Respublika “Hunarmand” uyushmasi a`zoligiga kirishda ko'maklashamiz. Bu ularga yakka tartibda faoliyat boshlashga yordam beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini izchil rivojlantirish maqsadida tadbirkorlikka ulkan e'tibor qaratilmoqda, biznes yuritish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Shu bois g'ar bir tadbirkorlik sub`ekti, davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalangan g'olda, yangi-yangi muvaffaqiyatlarga erishishga intilmoqda.

## **II-BOB. YOG'OCH O'YMAKORLIGIDA LAGANNI BEZASH**

### **2.1 Lagan uchun yog'och tanlash va laganni yasash.**

Qadim-qadimdan har xil yog'och materiallardan turli maqsadda foydalanib kelingan. Duradgorlik, yog'ochsozlik, mebelsozlik, qurilish, kemasozlik va boshqa bir qator kasb-sohalarida yog'ochlardan keng-ko'lama shu sohaga mos ishlanadigan yog'ochlar saralanib foydalanib kelingan. Yog'och o'ymakorligida ham o'ymakor ustalar yogochni o'yishdan oldin uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rjanib chiqqanlaridan so'nggina yog'ochni o'yib naqsh ishlaganlar.

Yog'och o'ymakorligida foydalaniladigan yog'och materiallari, ularning turlari, fizikaviy va ximiyaviy xususiyatlari, zahiralari va boshqalarni bilish usta uchun muhim ahamiyatga ega. Yog'och materiallari turli daraxtlardan olinadigan xom ashyo hisoblanadi.

Yog'och materillari tabiiy guliga, ranggiga, tovlanishiga va hidiga qarab aniqlanadi.

O'zbekistonda yog'ochlarning yumshoq, qattiq va juda qattiq xodalari olinadigan nina bargli va yaproq bargli turlari bor. Nina bargli daraxtlardan olinadigan yog'ochlar qurilishda, duradgorlikda, jumladan, yog'och o'ymakorligida ham asosiy material sifatida ko'proq ishlatiladi. Chunki, nina bargli daraxtlar tarkibida smolali moddalari ko'proq bo'lganligi uchun u tez chirib ketmasligi, namga chidamliligi, bargli daraxtlarga qaraganda ko'pliligi va engilligi, unga ishlov berish osonligi, tanasining to'g'riliqi, silliqligi, ulardan olinadigan xodalarning kam bo'toqligi, ishlov berishning osonligi bilan o'ymakor ustalarga ko'proq qo'l keladi. Yog'och o'ymakor ustalar o'z asarlarini har tomonlama go'zal va jozibador chiqishi uchun eng yaxshi yong'oq, qayrag'och, chinor, tut, archa, terak, o'rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a'lo navlarini ishlatadilar. Hozirgi kunda mahalliy daraxtlardan olingan materiallar bilan bir qatorda boshqa joylardan keltirilgan shamshod, eman, qarag'ay, arg'uvon, shumtol, zirk kabi boshqa daraxt yog'ochlari ham ishlatilmoqda.

Yog'och o'ymakor ustalari o'zlari yaratayotgan buyumlariga qarab yog'och materiallarining xususiyatlari, daraxtlarning turlari, rangi, ishlov

berishning oson-qiyinligi va ishlov berilgandan keyin buyumlarning sifatlari chiqishi va saqlanishini bilishlari uchun yog'ochlar olinadigan daraxtlarni o'rganishlariga to'g'ri keladi.

**Archa** – O'zbekistonning tog'li joylarida o'sadigan daraxtlardan biri bo'lib, u 1000 yoshgacha yashaydi. Po'stlog'i qalin, rangi kulrang, tanasining tusi qizg'ish-pushti bo'lib tovlanadi. Serbo'toq, kam smolali, puxta, namga chidamsiz igna bargli daraxt. Undan qog'oz sanoatida, mebellar va boshqa narsalar yashashda foydalaniladi. Yog'och o'ymakorligida qadimdan qo'llanib kelingan.

**Arg'uvon** – yaproqli daraxt turiga kirib, u qalin po'stloqli, engil, kam yoriluvchan, yog'ochi yumshoq, oqish tusli bo'ladi. Uning yillik halqalarini aniqlash qiyin. Arg'uvon kam chatnaydi, toblanmaydi, kesish oson, hidsiz bo'lganligi uchun yog'och idishlar, bochkalar, sabzi taxtalar, chizmachilik taxtalari yasaladi. Yog'och o'ymakorligida arg'uvonning 80-90 yilligi ishlatiladi.

**Baqaterak** – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i silliq, ranggi oq-ko'kish, tanasi to'g'ri bo'lmay sershox bo'ladi. Baqaterakning yog'ochi oqish tusli bo'lib, namga chidamsiz bo'ladi. U qurilish ishlarida, o'ymakorlik, duradgorlik buyumlarni tayyorlashda ishlatiladi. Undan eshiklar tayyorlashda va panjara to'qishda keng qo'llaniladi.

**Yong'oq** – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i ko'kimdir, qalin, silliq, yog'ochi qizg'ish kul rang tusli, qattiq va og'ir qimmatbaho yog'och. Uning tanasining pastki qismida po'stlog'inining chatnog'i bor. Yong'oqning tabiiy guli chiroyli, ishlov berish qiyin bo'lsada yaxshi o'yiladi va yaxshi pardozlanadi. Uning tarkibida yog' va yod moddasining mavjudligi yong'oqdan yasalgan buyumlarga o'zgacha chiroy va joziba baxsh etadi. Undan qimmatbaho mebellar tayyorlashda va yog'och o'ymakorligida keng-ko'lamda ishlatiladi.

**Zarang** – qattiq yog'och turiga kirib, u qoramdir qizg'ish rangli, zikh, puxta, mexanik xossalari jihatidan emandan ustun turadi. Tabiiy gullari chiroyli bo'lib, o'zgacha bir chiroy kasb etadi. Yillik halqalari bir oz bilinadi, ishlov berilishi qiyin, yaxshi o'yiladi va pardozlanadi. Zarangning qush ko'ziga o'xshash

tabiiy gullarining chiroyi boshqa yog'ochlardan ajratib turadi. Yog'och o'ymakor ustalari uning qush ko'ziga o'xhash gullarini hisobga olib qush ko'zi ham deb aytadilar. Yog'och o'ymakorligida mebelsozlikda zarang xom-ashyolaridan tayyorlangan buyumlar qimmatbaho hisoblanadi. U mashinasozlik korxonalarida ham ishlatiladi.

**Zirk** – uning ikki turi mavjud bo'lib, oq va qora zirk deb yuritiladi. Oq zirk po'stlog'i tiniq hamda silliq bo'ladi. qora zirkning po'stlog'i qoramtilusda bo'lib, qalin chatnagan bo'ladi. Zirk namga chidamli, bo'yoqni yaxshi oladi, ochiq havoda tez qizarib ketadi, yumshoq, yillik halqalari ko'zga tez va yaqqol tashlanadi. O'yilishi va pardozlanishi qiyin. Undan arzon mebellar va fanerlar tayyorlashda ishlatiladi, chunki unga tez qurt tushadi.

**Mirzaterak** – yaproq bargli daraxt turiga kirib, po'stlog'i sarg'ish, kam chatnagan va silliq bo'ladi. U kam shoxli, tanasi tik va to'g'ri, yog'ochi oq tusli, namga chidamsiz bo'ladi. Mirzaterak duradgorlikda va yog'och o'ymakorligida keng ishlatiladi.

**Nok** – bargli, mevali, qalin po'stloqli, chatnagan bo'ladi. Nokning yog'ochi to'q jigarrang, mo'rt, qattiq, yillik halqalari bilinar-bilinmas. Uning xodalaridan gul bosadigan qoliplar, randalangan panerlar va qimmatbaho mebellar tayyorlanadi. O'ymakorlikda ishlatiladi.

**Oq qayin** – yaproq bargli, daraxt turiga kirib uncha qalin bo'limgan oqish bo'limgan oqish po'stlog'li palaxsa-palaxsa yorilgan bo'ladi. Uning yog'ochi qattiq, oqish tusli, yog'ochga ishlov berish qiyin, yillik halqalari bilinar-bilinmas, namga chidamsiz, o'yilganda sifatsiz, lekin yaxshi pardozlanadi. Tanasida smolali va yog'ning yo'qligi sababli tolalari qovushqoq emas. Asosan oq qayindan fanerlar, mebellar, egri chiziqli yog'och detallar va boshqalar tayyorlashda ishlatiladi. U yog'och o'ymakorligida kam ishlatilib duradgorlik va qurilishda keng ishlatiladi.

**Oq qarag'ay** – po'stlog'i yupqa, silliq, kulrang tusda, yumshoq, engil, oson ishlanadi, biroz qoramtilir dog'li, yog'ochi oqish tusda bo'ladi. U mayda ko'zli, kam yog' va kam smolali, hidi yo'q, namga chidamsiz daraxtlar sirasidan.

Oq qarag'ay ko'proq cholg'u asboblarini yasashda, asosan qurilishda ishlatiladi. Yog'och o'ymakorligida qisman ishlatiladi.

**Tilog'och** – ignabarglalar turiga kiruvchi ushbu daraxt o'ta og'ir, yog'ochi qattiq, qoramtil-sarg'ish rangli bo'lib, chiroyli ko'rinishga ega. Tilog'och namga chidamli, qarag'ay daraxtiga qaraganda 30% mustahkam. U ortiqcha yog'li va smolali, o'yilishi biroz qiyinroq bo'lsa-da, chiroyli pardolzlanadi. Po'stlog'i qalin, yillik halqalari aniq ko'rindi, yog'ochi mayin qatlamlili. Tilog'och ortiqcha yog'li va smolali bo'lganligi uchun tez chirishni oldini oladi, issiqda o'yma yuzasidan smolasi quyilib oqib chiqadi va o'ymaning sifatini buzadi. Shu kabi nuqsonlari uni yog'och o'ymakorligida kam qo'llanishiga olib keladi. U asosan qurilishda ishlatiladi.

**Tog' teragi** – yaproq bargli daraxt, po'stlog'inining rangi sarg'imtir, yupqaroq, tanasining pastki qismlarida chatnog'i bo'ladi. Tog' teragi yumshoq yog'ochlar turiga kiradi, yog'ochiga ishlov berish oson, engil, tanasi oqish-sarg'imtir tusda, namga chidamsiz, yillik halqalari aniq ko'rindi. Undan turlituman o'yinchoqlar, idishlar, gugurt qutisi va donalari, faner, har xil buyumlar tayyorlanadi. qurilishda, eshik va romlar yasashda foydalanish mumkin. Yog'och o'ymakorligida namga chidamsizligi va juda tez chiriganligi uchun kam ishlatiladi.

**Chinor** – yaproq barglilar turiga kiruvchi bu daraxtning po'stlog'i qizg'ish-sariq tusli, tanasining rangi qizg'ish qoramtil, ko'p shoxli, mustahkam va qattiq, pishiq puxta, yupqa va silliq. Chinordan olingan materiallarga ishlov berish qiyin, yog'ochida tabiiy atlassimon gullari bor, loklanganda o'zgacha chiroy va joziba baxsh etadi. Yog'och tolalari betartib bo'lganligi bois o'ymakor ustadan mahorat va sinchkovlikni talab etadi. O'yilganda o'yma sifatli va pardozi nafis chiqadi. Chinordan qimmatbahoh mebellar va randalangan fanerlar tayyorlanadi. Yog'och o'ymakorligida keng-ko'lamda ishlatiladi.

**Shumtol** – yaproq bargli, kam yoriluvchan, qovushqoq yog'ochli, och qizg'ish rangli, mustahkam, puxta, pishiq, tabiiy gulli, chiroyli, va egiluvchan daraxt. Uning yog'ochiga ishlov berish qiyin, silliq randalanadi va pardozlanadi.

Yillik tolalari aniq ko'rindi, bug'langanda esa yaxshi egiluvchan bo'ladi. Shumtolning yog'ochidan olingan materiallar faner tayyorlashda, vagonsozlikda, samolyotsozlikda, kemasozlikda qo'llaniladi. Uning yog'ochidan har xil asbob dastalari, sport buyumlari tayyorlanadi. Yog'och o'ymakorligida keng foydalanadi.

**O'rik** – yaproq bargli daraxt. Mevali, tanasi qoramtil-qizg'ish, qattiq va mustahkam. Uning yog'ochidan har xil mayda buyumlar, lavh, qutichalar tayyorlashda va instruktastiya ishlashda foydalilanadi. Yog'och o'ymakorligida keng ishlatiladi.

**Qarag'ay** – ignabarglilar turiga kiruvchi ushbu daraxtning po'stlog'i qalin, to'q jigarrang tusda bo'ladi. Uning yog'ochi puxta, engil, smolali, oq-qizg'ish, namga chidamli daraxt. Qarag'ay tik va to'g'ri o'sadi, uning balandligi 30-40 metrgacha, yoshi 120-150 yilgacha bo'ladi. Qarag'ay yumshoq bo'lib, uni yorish, arralash, randalash, elimlash, bo'yash, loklash, ishlov berish oson. U kemasozlikda, mebel ishlab chiqarishda va duradgorlikda ishlatiladi. Yog'och o'ymakorligida monemuntal ishlarda keng ko'lamda ishlatiladi. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan turli xom-ashyolar o'zining pishiqligi, nuqsonsizligi, qurt emanganligi, rangining tiniqligi, mustahkamligi, loklansa yanada go'zal tovlanishi, ko'p yillar davomida yorilmasligi, buralmasligi, namga chidamliligi, pardozlanishi, o'yishda qo'porilmasligi va shunga o'xshash o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yasalayotgan buyumga mos keladigan materiallardan tanlash alohida ahamiyatga ega.

Yog'och o'ymakor ustalari o'zлari yaratayotgan buyumlariga qarab yog'och materiallarining xususiyatlari, daraxtlarning turlari, rangi, ishlov berishning oson-qiyinligi va ishlov berilgandan keyin buyumlarning sifatli chiqishi va saqlanishini bilishlari uchun yog'ochlar olinadigan daraxtlarni o'rganishlariga to'g'ri keladi.

Yog'ochni o'ymaga tayyorlaihning o'ziga xos texnologiyasi mayjud. Uni bilmasdan turib baqiqiy usta bolib yetishish qiyin.

Usta yog'ochning gulini aniqlay olishi, o'ziga xos xususiyatlarini hamda uni o'ymaga tayyorlash texnologiyasini yaxshi bilishi kerak. Yogoqch o'ymakoriigida yogochni quyosh nuri tushgan tomonidan ko'p foydalanadilar. Chunki quyoshga

qaragan tomoni zich va pishiq bo'ladi. Avalgi ustalar yogochni 6 oydan 1 yilgacha suvda, nam hovuzlarda saqlaganlar. Keyin esa 10-15 yilgacha soyada tabiiy quritishgan. Iloji boricha o'ymakor ustalar yog'ochni somonga qo'shib qoyib quritishgan, chunki somon yog'och rangiga tasir etib uni yanada go'zallaihtirgan. Tabiiy quritisning bar ikkala texnologiyasi ham azaldan ota-bobolarimizning quritish uslubi bo'lgan. Bunda yong'oq yog'ochining rangi to'qlashgan. Chunki yong'oq daraxti tarkibida «yog» muddasi mavjud bolib, u suvda saqlanganda suv bilan «reaksiya»ga kirib qorayadi. Qolgan bosbqa yog'ochlar suvda saqlanganda ham quritilganda ham rangi o'zgarmaydi. Yog'och oymakor ustalarimiz yuqorida aytilgan texnologiyaga qisman amal qilishmayapti. Shuning uchun hozir yasalgan va o'yilgan yog'och eshiklar, ustun va xontaxtalar bir yil o'tmasdan yorilib ketmoqda. Bu yog'ochni o'ymaga yaxshi tayyorlanmaganligidan dalolat beradi.

Lagan yasash uchun asosan yong'oq va chinor daraxti yog'ochidan foydalaniladi. Lagan yasash uchun yog'och maxsus tokar stanogi qisqichiga o'rnatilib, Aylanma harakat qilayotgan yog'och maxsus novasimon iskana bilan ishlov berilib yasaladi. Lagan shakliga keltirilgan yog'och jilvir qog'oz bilan silliqlanadi. Bu jarayon stanokda yog'och aylanayotgan vaqtda bajariladi.

## **2.2. Lagan uchun naksh kompozitsiyasini bajarish**

Yog'och o'ymakorligida laganga ishlov berish, ustadan alohida e'tibor va kattagina mahorat talab qiladi. Chunki laganning yuza qismi odatdagidek tekis emas, balki ichkariga egilgan holda ya'ni, biz bilgan oddiy laganlarga o'xshab ichki qismi bir muncha chuqurlashtirilgan bo'ladi. Shuning uchun ham unga naqsh o'yish biroz qiyinchilik tug'diradi. Shunday bo'lsada, lagan ajoyib yog'och o'ymakorligi buyumlaridan hisoblanib, unga bir qancha usullardagi naqsh kompozistiyalaridan o'yib ishlov berish mumkin. Masalan:

Islimiyl naqsh kompozistiyasini o'zini tushirib o'yish;

Islimiyl naqsh kompozistiyasi va pargori naqsh kompozistiyasini aralashtirib o'yish;

Faqt pargora naqsh kompozistiyasini tushirib o'yish;

O'ymakorlik bilan naqqoshlikni hamkorlikda qilib, ishlov berish.

Laganga naqsh kompozistiyasi tuzishdan oldin, buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan: chizg'ich, pargor (stirkul) va boshqa bir qator asboblar kerak bo'ladi.

Buyum o'lchamini aniq o'lchab olingandan so'ng, buyum uchun qanday naqsh kompozistiyasi tuzilsa buyum yana ko'r kamroq, go'zal va jozibador chiqishligini ko'z oldimizga keltirgan holda fikr yuritish lozim. Bunda kompozistiya tuzuvchining do'nyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatligi va didining yuqori darajadaligiga bog'liq. Demak bir to'xtamga kelgach qog'oziga naqsh kompozistiyasi chiziladi.

Kompozistiya tuzishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olish maqsadga muofiq bo'ladi, ya'ni buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini e'tiborga olish alohida ahamiyatga ega. Yumshoq materialdan olingan bo'lsa yirikroq, qattiq materialdan olingan bo'lsa maydaroq, murakkabroq naqsh turidan foydalanish mumkin.

O'zbek halq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiatni va voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalalar tabiatning aynan o'zidan stillashtirilgan tarzda olingan. Odatda o'simliklar bir tomonga qarab o'sadi, bu tabiat qonunidir. Masalan majnuntol misolida ko'radigan bo'lsak, majnuntol xuddi pastga qarab o'sayotgandek tuyulsa-da, lekin haqiqatdan esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo'lish tomonlama yunalishga qarab o'sadi. Tabiatning bu qonuni naqshda ham o'z aksini topgan.

Naqqosh usta chizadigan naqsh kompozistiyalari shunchaki qog'oz betini to'ldirish yoki o'yma yuzini o'yish uchun emas, balki ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariiga amal qilgan holda naqsh kompozistiyasini chizish tushuniladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda o'ymakor ustuning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich naqsh kompozistiyasi nusxasini chizishdan iborat. Agarda naqsh kompozistiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda

tuzilgan bo'lsa, u holda o'yishda ham, pardoz berishda ham har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko'ngildagidek go'zal va jozibador chiqmaydi.

Daf'atan qaraganimizda o'yma naqsh juda chiroyli, go'zal va jozibador ko'rinsa-da, lekin bir ozdan so'ng naqsh kompozistiyasini tuzishda qo'yilgan xato va kamchiliklar, nuqsonlar yaqqol sezilib qoladi.

Laganga kompozistiya chizish uchun aylana taqsimdan foydalanib uni stirkul yordamida bir nechta qismga bo'lib olinadi. Buyumdan olingan o'lchamga moslab naqsh kompozistiyalaridan bir nechtasi chizib mashq qilinadi. Chizilgan naqsh kompozistiyalaridan eng munosibi tanlab olinadi.

Odatda tuzilgan naqsh kompozistiyasini kalka (xitoy qog'ozni yoki shaffof qog'ozga ko'chirib axta ulgi) tayyorlanadi. Ammo biz odatga xilof ravishda ish yuritamiz. Ya'ni tayyor naqsh kompozistiyasini hozirgi kunda keng tarqalgan nusxa ko'chirish apparatlarida (kserokopiya) ko'paytirib olamiz. Bu usulning afzalliklari shundaki, agar kompozistiyani kalka yordamida yog'ochga tushuradigan bo'lsak vaqt ko'proq sarflanadi, yangi usul bo'lsa bizga vaqtdan yutish imkonini beradi. Bugungi kunda ko'pchilik yog'och o'ymakorligi ustalari aynan zamonaviy apparatlarda nusxa ko'chirib, so'ngra uni yog'ochga yopishtirib o'yish usulidan keng foydalanmoqdalar.

Ko'paytirilgan naqsh nusxasini qaychi yordamida kerakli hajmda qirqib chiqiladi va laganda belgilangan joylarga aniq o'lchamda joylashtirilib, oddiy qog'oz elimida yopishtirib chiqiladi.

**Kompozitsiya** - ruscha-lotincha so'zdan olingan bo'lib, adabiy asar yoki sanat asari qismlarining tuzilishi, joylashishi va o'zaro munosabati hamda tarkibiy qismlari mano jihatidan o'zaro bog'lanib birlik tashkil etgan badiiy yoki tasviriy sanat asari tushuniladi. Kompozistiya ishslashda ritm, simmetriya, asimmetriya, kompanovka, taqsim, davriy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiylici, chiroyliligi va pardozlarning bir-biriga uyg'unligi kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

**Kompanovka**, yani joylashtirish - chizish kerak bo'lgan naqsh kompozistiyasini yoki tasvirni qog'oz, o'yma uchun tayyorlangan taxatacha, buyum yoki tasvirni tushirish lozim bo'lgan yuzaga to'g'ri joylashtirish demakdir.

**Taqsim** (ruscha rapport) - franstuzcha so'zdan olingan bo'lib, naqshning malum bir shaklda takrorlanuvchi qismi, bo'lagi hisoblanadi. Markaziy Osiyo naqshlari o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, naqshlarning deyarli hammasi takrorlanuvchi malum bo'lakdan, qismdan iboratdir. o'ymakor-naqqoshlar avval taqsim yuzini qog'ozga belgilab, naqsh kompozistiyasining bir qismini chizadi va axtasini, yani ulgusini tayyorlaydi. o'ymakor-naqqosh bezatiladigan yuzaga shu axta yordamida naqshni takrorlab tushirshi natijasida naqsh kompozistiyasi yaxlit holga keladi. Naqsh kompozistiyasining takrorlanuvchi qismi har xil bo'ladi. Masalan, uchburchak, to'rburchak, kvadrat va hakkazo ko'rinishda bo'lishi mumkin. Doira yoki gumbazga o'xshash buyum yuzasiga mo'ljallangan bo'lsa naqsh taqsimi kompozistiya yuzining to'rtadan, oltidan, sakkizdan, o'n ikkidan va hakkazo qismlarini tashkil etib, taqsim doirada yonma-yon takrorlanadi. Bunday taqsimni aylana taqsim deb ham atashadi. Taqsim to'g'ri chiziq bo'yicha takrorlansa uni to'g'ri taqsim deb yuritiladi. Taqsim to'g'ri va oynada aksi ko'ringandek shaklda almashlab takrorlansa unda chapu-rost taqsim deyiladi. Bunday ko'rinishdagi taqsimlar juda keng tarqalgan.

**Simmetriya** - ruscha-grekcha so'zdan olingan bo'lib, biror narsaning malum nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan qarama-qarshi tomonda joylashgan qismlari o'rtasidagi munosiblik, o'xshashlik, moslik, uyg'unlik tushuniladi.

**Asimetriya** - ruscha-grekcha so'zdan olingan bo'lib, simmetriya yo'qligi yoki buzilganligi, simmetriyasizlik, yani tuzilgan kompozistiyada simmetrik qonun-qoidalar muvozanatining buzilganligi tushuniladi.

Ritm - ruscha-grekcha so'zdan olingan bo'lib, biror hodisa, ish-harakat yoki naqsh kompozistiyasi elementlarining malum tartibda vaqt oralig'ida o'lchovli ravishda bir tekis takrorlanib turishidir. U naqshdag'i harakatning uzlucksiz va go'zal ko'rinishini taminlaydi.

Stilizaçıya - tabiatdagi nabobot, hayvonot olami va shu kabilarning tasviri, rangi, shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir.

Naqsh kompozistiyasi chizishda quyidagilarga etibor qaratish va amal qilish kerak bo'ladi:

Birinchidan, tanob yoki novda tagida gul, g'uncha yoki bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas, yani: naqsh kompozistiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va shakl beuvchi chiziq hisoblanadi;

Ikkinchidan, tanob bilan novdani farqlab tasvirlash;

Uchinchidan, taqsimda ortiqcha naqsh elementlarini chizishga yo'l qo'ymaslik;

To'rtinchidan, tanobdan hech qachon gul, novda, g'uncha va boshqalarini o'sib chiqqan holda tasvirlamaslik;

Beshinchidan, naqsh elementlari nisbatini saqlay bilish;

Oltinchidan, tuzilgan naqsh kompozistiyasining yog'och o'ymakorligiga moslab tuzilishini taminlash;

Ettinchidan, naqsh zichligiga etibor berish;

Sakkizinchidan, naqsh orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash va hokkazolarni etibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Buyumdan olingan o'lchamga moslab naqsh kompozistiylaridan bir nechtasi chizib mashq qilinadi. Chizilgan naqsh kompozistiylaridan eng munosibi tanlab olinib, chetiga zanjiralardan birini hoshiya sifatida qo'llash ham mumkin. Agar zanjira qilnmasa chetidan albatta ramka qoldirish zarur. Ramkasiz naqshni bezalmagan uyga qiyos qilish mumkin.

Kompozistiya tuzishda naqsh elementlari hoshiyaga tekizilmaydi. Bu naqsh kompozistiyasi alohida ajralib o'ziga xoslikka ega bo'lishligi bilan bir qatorda joziba baxsh etadi. Bunga turinj, namoyon, kvadrat va boshqa tugallangan naqsh kompozistiyasi tuzishda ayniqsa ahamiyat qaratish lozim.

Tuzilgan naqsh kompozistiyasini kalka (xitoy qog'oz yoki shaffof qog'oz) ga ko'chirib axta (ulgi) tayyorlanadi.

Axta - tayyor rasmni shaffof qog'ozga chizib, chiziq yo'llarini igna sanchib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlanadigan andozadir. Ilk davrlarda ustalar o'yma yuzasiga to'g'ridan-to'g'ri chizib, o'yib ketganlar. Keyinchalik esa axta orqali tasvirni tushirish qulayligini sezishgan va undan foydalanib kelganlar.

Axta tayyorlash uchun buyumning o'yma bajariladigan yuzasiga mo'ljallab yupqa shaffof qog'oz olinadi. Naqsh kompozistiyasiga moslab simmetriya o'qi bo'ylab shaffof qog'ozni ikkiga, to'rtga va hokkazolarga buklanadi. Buklangan shaffof qog'ozning bir qismiga naqsh kompozistiyasi chiziladi. Naqsh chizilgan shaffof qog'ozni yumshoq yostiq ustiga qo'yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshning yirik-maydalagiga qarab igna tanlanadi va igna teshigi oralig'i naqshning mayda yoki yirikligiga qarab teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa tayyor bo'lgandan so'ng, shaffof qog'oz yozib yuboriladi va bir butun kompozistiyasini ko'rish mumkin. Tayyor bo'lgan axtani o'yma yuzasiga qo'yib ustidan xoka urib yoki bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh nusxasi buyum yuzasiga ko'chiriladi.

### **2.3. Laganda o'yma ishlarini bajarish.**

Naqshni laganga tushirilgach, uning chiziqlari ustidan kerakli asboblarda kesib chiqiladi. Bu asboblarga e'tibor berib qarasak, har bir asbobning tagida to'qmoq bilan zarb berib kesib ko'rganimizda qanday shaklda kesilishi ko'rsatilgan va har biri tartib raqami bilan belgilangan. Naqshni kesayotganimizda har doim eng kichik aylana chizig'i topilib, ishni avval ana shu aylanani kesishdan boshlanadi va asboblarning tartib raqamiga qarab kattalashib borib, nihoyat to'g'ri chiziq kesadigan asbobga kelganda naqshning barcha chiziqlari kesilgan holatga keladi.

Naqshni kesish bosqichi yakunlangandan so'ng, zaminini o'yish va tozalash bosqichi boshlanadi. O'yishda ishlataladigan asboblarning uch qismlari kesadigan asboblardan farq qiladi. O'yadigan asbobning uch qismi o'yish uchun mo'ljallangan bo'lib, tekis holatda va bir tomoni qiya qilib charxlangan bo'ladi. Ularni o'yadigan joyga qarab juda ingichka, o'rtacha va qalinroq qilib tanlanadi.

Zamin o'yilayotganda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- O'yilayotgan paytda har bir o'yadigan asbobni o'zi sig'adigan joyga tushirish;
- Tekis va ravon o'yish;
- Novdalarni uchirib yubormaslik;
- O'yilayotganda qo'lga ehtiyot bo'lishlik va shunga o'xshash barcha qonun-qoidalarga e'tibor berishlik.

Keyingi bosqich o'yilgan zaminni chakichlash bosqichi bo'lib, unda chekma qalam, ya'ni chakichlash asbobi naqsh kompozistiyasiga qarab, katta yoki kichigi tanlab olinadi. Chakichlashning o'zi bir san'at hisoblanadi. Bir tekisda va bir me'yorda chiroyli chakichlangan naqsh zamini, buyumga o'zacha chiroy baxsh etadi.

Laganga naqsh tushirib, kesib, o'yib, chakichlab bo'lingach qumqog'oz bilan yaxshilab jilvirlanadi. Avval yirikroq, o'rtacha va nihoyat mayda jilvir bilan ishqalanadi. Yopishtirilgan qog'ozlarning birontasini ham qoldirmasdan, buyum yuzasini tep-tekis holatga keltirilgach qumqog'oz ishlari yakunlanadi.

Yuqoridaq barcha ishlar amalga oshirilgach, laganni loklash bosqichiga navbat keladi. Loklash ikki xil usulda bo'ladi:

- Oddiy rangsiz moyli lokda loklash;
- Sherlakda tumpun yordamida loklash.

Biz ikkinchi usulni qo'llagan holda ish yuritamiz. Buning uchun avval laganning yuzasini mashina moyi yordamida moylab chiqiladi, so'ng bir necha soatdan keyin moy qurigach, juda ham mayda qumqog'oz bilan yuzani yaxshilab ishqalab silliq holga keltiriladi. Keyin qoraytirilgan niytra lok yordamida naqsh zaminini bo'yab, loklab chiqiladi va rastvoritelni biron matoga xo'llab buyum yuzasidagi niytra lokdan qolan dog'larni artib chiqiladi. Sherlak spirtga qo'shib eritib tayyorlangani uchun, uning asosiy tarkibi spirtdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham uni bevosita mo'yqalam bilan yog'ochga berib bo'lmaydi. Laganga sherlak berish uchun oddiy paxtani dumaloq qilib, paxtadan tayyorlangan mato bo'lagi ichiga solib o'raladi va sekin-asta sherlak bilan xo'llab, silliq lagan

yuzasiga bir me'yorda botirmasdan ishqalab chiqiladi. Bu hol matoga o'ralgan paxta quriguncha davom etadi va bir necha daqqa dam oldirilgandan keyin yana sherlak beriladi. Buyumga sherlak berish kamida uch marotaba amalga oshiriladi va loklash ishlari yakunlanadi.

Loklash ishlarini amalga oshirib bo'lgach albatta, so'nggi pardozlash ishlari bajariladi. Xalq amaliy bezak san'ati turlari zargarlik, ganchkorlik, misgarlik, kulolchilik kabi yog'och o'ymakorligida ham buyumga oxiri ishlov berish, pardoz berish, jilolashdan iboratdir. Masalan, yog'och o'ymakorligida umuman 6 xil pardoz turi bo'lib, ular qirqma, chizma, pax, choka, lo'la va tabaqa pardoz turlariga bo'linadi. Shulardan to'rt xili, ya'ni pax, choka, lo'la va tabaqa pardozlari rel'efga pardoz berishda ishlatiladi. Ushbu pardoz turlari 2 ga bo'linib oddiy (pax va choka) va murakkab (lo'la va tabaqa) pardoz turlarini o'z ichiga oladi.

Odatda tuzilgan naqsh komozistiyasining xarakteriga mos ravishda pardoz turi tanlanadi. Pardoz turini tanlashda yorug' va soya tushishini ham hisobga olishni unutmaslik kerak. Masalan:

**Pax pardoz** – yog'och o'ymakorligida o'yma naqsh rel'efini bir tomonga qiyalab kesiladigan oddiy pardoz turidir. Bu pardozni yoyma pardoz deb atashimiz mumkin. Ustalar pax pardozi "zanjira"ni o'yish natijasida yuzaga kelgan deya taxmin qilishadi. Pax pardozi choka pardoz, lo'la pardoz va tabaqa pardozdan ancha oson bo'lib, pax pardozi berilgan o'ymadagi nur va soya ancha yumshab mayin ko'rinishga ega bo'ladi.

**Choka pardoz** – naqsh bandining qiyaligini o'rtaga olib uzunasiga o'yilgan pardoz turi. Bu pardozni yorma pardoz deb ham ataydilar. Qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabi ustalari bu pardoz turidan keng foydalanadilar. Choka pardozi o'ymakor ustadan mahorat va iste'dod talab qiladi. Bu pardoz turi bilan pardozlangan naqsh o'zgacha bir husn kasb etadi.

**Lo'la pardoz** – o'yma rel'efni yarim yumaloq ishlov berilgan murakkab pardoz turi. Bu pardoz turi nafaqat yog'och o'ymakorligida, balki ganch va tosh o'ymakorligida ham ishlatiladi. Lo'la pardoz turi pardoz turlari ichida eng oxiri

qo'llanila boshlangan. Lo'la pardoz bilan pardozlangan o'ymaning chuqurligi kamayadi va naqsh mayin ko'rinishga ega bo'ladi.

**Tabaqa pardoz** – XIX asrda Buxoro ustalari tomonidan yaratilgan o'yilayotgan barg, gul ikki yoki uch qatlam qilib o'yiladigan pardoz turi. Tabaqa pardozi barcha pardoz turlari ichida eng murakkabi bo'lib, o'ymakor ustadan professional mahorat talab etadi.

Ishlanayotgan lagan yuza o'yilgani uchun lo'la pardozdan foydalanishning iloji yo'q. Shuning uchun pardozlashda tabaqa pardozdan foydalaniladi. Buyumni pardozlash uchun bir necha pardoz asboblari kerak bo'ladi. Ular bajaradigan vazifalari jihatidan bir qancha turga bo'linadi. Masalan: Chiziq ochishda, shilishda va dumaloq shaklda chuqurcha ochish uchun ishlatiladigan asboblar. Pardozlash jarayonida ba'zi joylarda kesadigan va o'yadigan asboblardan ham foydalaniladi.

Laganga pardoz berish bosqichida pardozlash, chiziq ochishda ishlatiladigan asboblar yordamida boshlanadi. Bu jarayonda chap qo'lda asbobni, o'ng qo'lda to'qmoqni ushlab sekin-asta zarb berib, novdalarning o'rtasi, gullar va barglarning chet qismlari ochib chiqiladi. So'ng dumaloq shaklda chuqurcha ochadigan maxsus asboblar yordamida marg'ulalar va yana kerakli qismlari ochiladi. Bu ish amalga oshirilgach, shiladigan maxsus asboblar yordamida gullar va barglarning shilinadigan qismlari shilinib, oqartirib chiqiladi. Pardozlash ishlari yakuniga etkazilgach, laganning o'yilgan qismlariga tushgan qipiqlar tozalab tashlanadi.

Yog'och o'ymakorligida ganch o'ymakorligidan farqli o'laroq o'ziga xoslikka ega. Yani, yog'och xom-ashyosining tabiiy fakturasini saqlagan holda o'yma naqshlardagi nur-soya ko'rinishining quyoshli yoki bulutli bo'lishiga qarab turlicha kayfiyat uyg'otadi. Naqsh kompozistiyasida naqsh elementlari orasidagi bo'shliqni ataylab chekma qalam yoki chekma iskanalar yordamida o'yiqchalar hosil qilingan yog'och o'ymakorligi usulida chakichlangan mayda chuqurchalar umumlashib teks o'yilgan yuzalarga qaraganda o'ziga xos tarzda ko'rinish naqsh kompozistiyasini nafis, yani mayinlashtirib ko'rsatadi.

Naqsh zaminini chakichlashda ishlatiladigan chekma qalam va chekma iskanalarni bir-biridan farqlab olmoq zarur. Chunki, har ikkisining ham o'z vazifasi va ishlatiladigan o'rni bor. Chekma iskana uy-ro'zg'or buyumlari, sovg'a buyumlarini badiiy bezashda ishlatilsa, chekma qalamlar ko'proq monumental o'ymakorlikda, yani eshik, darvoza, ustun va hakkozolarni chakichlashda qo'llaniladi. Chekma iskanalar bir tishli, uch tishli, besh tishli va hakkozo bo'lib, naqsh zaminini xuddi patir yuzasiga o'xshatib, chakichlab chiqsa, chekma qalam bir qatorli, ikki qatorli, uch qatorli bo'lib, har bir qatorida ikki, uch, to'rt, besh va hakkzo bo'rtma tishli bo'ladi va chekma qalamlar chekma iskanalardan farqli o'laroq yirik va kvadrat shakliga o'xshash iz qoldiradi.

Shunga alohida etibor berish joizki, har ikkisidan foydalanishda yog'och xom-ashyosining holatiga axamiyat berish kerak. Chekma qalam yoki iskana yog'och xom-ashyosiga nisbatan  $45^{\circ}$  qiyalikda ishlatish talab etiladi. Aks holda buyum sifatiga putur etkazadi. Yani, chekma qalam yoki iskananining tishlari yog'och tolalariga nisbatan parallel holda ishlatilsa buyumga chuqurroq botishi va xatto buyum darz ketishi ham mumkin. Agarda  $90^{\circ}$  da foydalaniladigan bo'lsa, yog'och tolalarini titib yuboradi. Bu esa buyum sifatiga salbiy tasir ko'rsatadi.

Buyumni chakichlashdan oldin chekma qalam va chekma iskananining ishchi holatiga axamiyat berish lozim. Chekma qalam va chekma iskanalarning tishlari orasidagi o'lcham bir xilda bo'lishligiga, shuningdek, haddan ziyod mayda yoki yirik bo'lmasligiga axamiyat berish kerak. Chunki, mayda tishli chekma qalam yoki chekma iskanalarda chakichlanganda o'yma zamin tushunarsiz, sifastiz o'yma bajarilganday ko'rinishga kelib qoladi. Yirik tishli chekma qalam yoki chekma iskanalardan foydalanilganda esa yirik-yirik chuqurchalar hosil bo'ladi, kishi kayfiyatini buzadi, ne-ne mashaqatlar bilan ishlangan sanat asarini ko'rimsiz va yaroqsiz buyumga aylantiradi.

Chekma qalam yoki chekma iskanalardan foydalanishda o'yish jarayonidagi singari iskanani bo'shroq, bolg'ani esa mahkamroq ushslash kerak. Buyumni chakichlash davomida bolg'ani bir xil kuchlanishda urishga etibor qaratish lozim. Buyumni chakichlash ustadan katta mahorat va qunt talab qiladi. Usta fikrni

jamlab bolg'aning tushishiga, qator oralarining bir xilligiga alohida sinchkovlik bilan axamiyat berib borish zarur. Yaratilayotgan sanat asari muhlislar ruhiyatini ko'taradi, kishiga zavq bag'ishlaydi, ko'ngliga shodlik olib kiradi. Shuning uchun har bir ishni bajarishda ushbu jihatlarga amal qilish muhim.

#### **2.4. Laganni loklash jarayoni.**

Yog'och o'ymakorligida qanchalik sifatli o'yma bajarilmasin, o'ymaga mos pardoz turi tanlanib alo darajada ishlov berilmasin, buyumni jozibadorligining 70-80 foizini so'nggi ishlov berilganlik darajasa tashkil qiladi. So'nggi ishlov berish deganda buyum o'yilib, zaminini chakichlanib, o'ymaga mos pardoz berilgandan keyingi yumushlarni tushinmok kerak. Yani, o'yma bajarilib bo'lingandan keyingi loklash boskichi nazarda tutiladi.

O'yma yuzasiga lok berishdan oldin o'yma yuzasini yaxshilab qum qog'ozda, yani jilvir qog'ozda jilvirlab chiqish zarur. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, jilvir qog'ozning bir necha turlari mavjud. O'yma yuzasini mayin jilvir qog'oz bilan jilvirlangandan so'ng chang va gardlardan tozalanadi.

Shu o'rinda quyidagilarni takidlab o'tish joizki, yani turli yog'och o'ymakorlik mакtablarida naqsh kompozistiyasining tuzilishi, o'yilishi va pardoz usullari kabi loklash usullarida ham o'ziga xoslikka ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Qo'qon yog'och o'ymakorlik mакtabi vakillari bazi hollarda monumental asarlarni yaratishda dastlab o'yma zamini va sirtiga bir tekisda alif moyi surtib chiqadilar, so'ngra loklashlariga guvoh bo'lsak, Samarqand yog'och o'ymakorligi mакtabi vakillari esa o'ymaning hamma zamini va releflarini bir maromda loklab chiqadilar.

Xivalik ustalar yog'och rangining tabiiyligini saqlagan holda o'yma yuzasi va zaminiga avval paxta, zig'ir, yani oq yog' berib so'ngra loklaydilar. Toshkentlik ustalar ijodiga nazar soladigan bo'lsak, umuman boshqacha manzaraning guvohi bo'lishimiz mumkin, yani o'yma yuzasiga, xattoki o'yma zaminini yog'och ranglari bilan och va to'q ko'rinishda bo'yab, so'ng o'yma relef yuzasini tanpon yordamida lok surtiladi. Bir necha marotaba lok surtib chiqilgandan keyin mayin

baxmal material bilan lok qurigach artib chiqiladi. Bu ham buyumga o'ziga xos go'zallik va joziba baxsh etadi.

Yana shuni takidlash lozimki, o'ymaning sirti yoki zaminiga rang berilganda o'ymakorlikda ishlatiladigan bo'yoqlar suvli bo'lganligi sababli sifastiz bajarilgan o'ymakorlik namunalarida yog'och namlanib toza olib tashlanmagan yog'och tolalari xunuk ko'rinishga kelib qoladi. Shuning uchun bo'yoq surtib chiqilgandan so'ng har gal bo'yoq qurigach mayin jilvir qog'ozda jilvirlanadi, zaminida sifastiz o'yma tufayli hosil bo'lган tolalar zamin iskana yordamida ehtiyotkorlik bilan olib tashlanadi.

Bo'yoq o'yma zaminiga mayin qilqalam bilan surtilsa, relef yuzasiga esa mayin va yumshok latta tanpon yordamida amalga oshiriladi. Yana shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik joizki, qanday bo'yoq tusidan foydalanishimiz bajarayotgan buyumimizning ishlatilish joyini, yog'och xom-ashyosining tabiiy ko'rinishini va hakkazolarni inobatga olgan holda rang tusini tanlash kerak. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan bo'yoqlar bir necha turga bo'linadi. Masalan, yong'oq tusli, dub yoki buk tusli va qo'ng'ir tusli bo'yoqlarni uchratishimiz mumkin.

Amaliy sanatning bir qator tur va janrlaridagidek yog'och o'ymakorligida ham barcha yumushlar bajarilib, oxirgi ishlov berish, yani loklash muammosi paydo bo'ladi. Yog'och o'ymakorligi ustasi lok turlarini bir-biridan farqlay olishi va amalda qo'llash texnologiyasini puxta egallagan bo'lishi zarur. Aks holda ne-ne mashaqqatlar bilan amalga oshirilgan mehnatni birgina arzimas xato tufayli yo'qqa chiqarishimiz mumkin. Chunki, o'ymakor usta tomonidan yaratilgan sanat asarinig jozibadorligiga, go'zalligiga va ko'rkaligiga loklash orqali erishiladi. Xo'sh, lok nima o'zi? Lok smolani spirtda eritib hosil qilinadigan suyuqlik bo'lib, buyumlarni yaltiratish va pardozlash uchun ishlatiladigan massa.

Lok sifatiga qarab 4 s, 6 s va 7 s markali bo'lib, yog'li, spirtli va smolali loklarga bo'linadi. 4 s markali loklar tusi quyuq ko'k choy yoki paxta yog'iga o'xshash bo'lib, ishlatilganda bo'yoqlarning, yog'och materiallarining tabiiy rangini saqlab qoladi va rangini o'zgartirmaydi. 6 s va 7 s markali loklarning tusi

qoramtir, rangi qora choyga o'xshash, hidi achchik bo'lib, ishlatilganda bo'yoqning va yog'och materiallarining tabiiy rangini saqlab qolmaydi, ularning rangini o'zgartirib sal qoramtir tus beradi.

Ayrim loklarda yuqorida aytilgan maxsus markalar qo'yilmaydi. Masalan, PF-283 lokini olaylik. Ushbu lok Toshkent lok-moy ishlab chikarish korxonasida tayyorlangan bo'lib, rangsiz, xuddi 4 s markali lok tusiga o'xshash rangi toza, tiniq. Lok qanday markada bo'lishidan qatiy nazar undan foydalanishdan avval uni kichkina narsaga surtib amalda sinab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda ishlatmoqchi bo'lgan lokimiz haqida to'liq malumotga ega bo'lamiz.

Chunki, lokni amalda qo'llamay turib u haqda to'liq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin emas. Undan foydalanish jarayonida rang tusi, qanday havo haroratida qurishi va muddati, yaltiroqligi, amalda foydalanilgandagi jilo berishi kabilarni bilib olamaz va shu yo'sinda amalda qo'llaymiz. Odatda lok 18-22 darajali haroratda 48 soatda, yani ikki sutkada yaxshi quriydi.

Buyum loklanganda maxsus salqin, changsiz va quruq joyda saqlanishi lozim. Chang va gardlar lok sifatiga putur etkazadi, issiq va nam joydalokning qurish muddati uzayadi. 2 va 3 marotaba lok surtilganda yaxshi qurimagan lok yig'ilib-yig'ilib burishib qoladi. Bunday kamchiliklar ishning saviyasiga tasir etmasdan qolmaydi. Shuning uchun har bir ishni amalga oshirishda puxta o'ylab ehtiyyotkorlik va sinchkovlik bilan harakat qilish zarur.

## XULOSA

Vatanimiz Mustaqillikka erishgandan sung har jabxada ijobiy o`zgarishlar, yuksalishlar sari borayotganimiz quvonchli holdir. Milliy qadriyatharimizni tiklash, o`zligimizni anglash, ota-bobolarimiz qoldirgan boy merosini qadriga etish va ulardan o`z hayotimizda, faoliyatimizda unumli foydalanish, ularning ruhi har doim bizga madadkor ekanligini qayd etishimiz joiz bo`lmasa kerak. Chunki bugungi kunga kelib hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bir qator xayrli ishlarni ta`kidlab o`tish kishi ruhiyatida faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi.

Ota-bobolarimizdan meros bo`lib qolgan obidalar, asori-atiqalarni qayta ta`mirlash, ularga qaytadan jon, joziba va go`zallik baxsh etish, qolaversa bizdan uzoklashtirilgan, umuman begonaga aylantirib ko`yishga qilingan harakatlar oraligidagi pardalar ko`tarilib hakiqat yana qayta qaddini rostladi. Yana o`z yurtiga Alpomish, Al-Buxoriy, Al-Farg'oniy, Amir Temur va yana ko`plab bizning bobokalonlarimiz qaytishdi. ularning ruhi poklarini shod qilish, qolaversa keyingi avlodlarga etkazish maqsadida qurilgan betimsol yodgorliklar, asori-atiqalar fikrimizning yorqin dalilidir. Birgina Toshkent shahrida milliy uslubda barpo etilgan bunday inshoatlarni ko`plab uchratishimiz mumkin. Temuriylar Davlat muzeyi, Oliy Majlis binosi, Toshkent shahar Hokimligi, qator bozorlar va savdo rastalari, madaniyat va istirohat bog'lari shular jumlasidandir.

Me`moriy yodgorliklar bunyod etilgan xotira maydoni ana shunday majmualardan biridir.

Ushbu majmua milliy hanarmandchiligidan yog'och o`ymakorligi bilan bezatilgan bo`lib, bir-biriga qarama-qarshi ayvondan tashkil topgan. Xar ikki ayvonda xam 21 tadan o`yma ustun o`rnatilgan. Ustunlarning 17 tasi bir qatorga o`rnatilgan bo`lib, marhumlarning nomlari zikr etilgan zarhal kitoblar o`rnatilgan ayvon devorining ikki tomoniga 2 tadan 4 ta o`yma ustun o`rnatilgan. Respublikamizning har bir viloyatlari, Toshkent shaxridan urushga ketgan jangchilarining nomlarini zikr etish bilan boshlangan. Ustunlar o`ymasi bir qavatli islimli naqshlardan tashkil topgan. Pardoz turining choka va tabaqa turlaridan unumli foydalanilgan. Naqsh kompozitsiyasini asosan bandlar va gullar tashkil

etadi. Keyingi bo`limlar Xorazm va Toshkent viloyatlariga ajratilgan bo`lib, naqsh kopolozitsiyasi o`ziga xos bo`lsada, o`ymani bajarish va pardozlash turlari deyarli bir xil uslubda bajarilgan. Surxondaryo va Sirdaryo bo`limlari esa o`ziga xos bo`lib, o`ymasining chuqurligi, naqsh kompozitsiyasining barglar, bargli gullar tashkil etadi. Choka va tabaqa pardoz turlaridan unumli foydalanilgan.

Samarqand va Qashqadaryo bo`limlarida ham avvalgi bo`limlardagi kabi naqsh kompozitsiyasi barglar va bargli gullardan tashkil topgan bo`lsada, pardoz turlarining pax, lo`la va tabaqa turlaridan keng foydalanilgan.

Ayvonning 2-tomonida Qoraqalpog`iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Farg`ona, Jizzax, Namangan va Navoiy viloyatlari bo`limlari joy olgan bo`lib, har biri o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpog`iston Respublikasi, Andijon va Buxoro viloyati bo`limlaridagi ustunlar 1 qavatli o`yma ham zamini uncha chuqur bulmagan va naqshning islimiy turidan tashkil topgan. qolgan bo`limlarda 2 qavatli o`ymadan o`ta nozik did bilan foydalanilgan bo`lib, naqsh kompozitsiyasini asosan bargli va bargli gullar tashkil qiladi. Pardozning barcha turlaridan unumli foydalanilgan.

Ko`rinib turibdiki, zamonaviy inshoatlarda qo`llanilayotgan san`at turlari va aynan Respublikamizning bosh maydonidagi bunday yodgorlikni fakat yog'och o`ymakorligi bilan bezatilishi ushbu san`at turining bugungi kunda gurkirab rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Mustaqillikka erishgan xalqimiz san`atshunoslaridan madaniy meros xazinasiga munosib yodgorlik yoki yodnomalarni izlab topish, ularni chuqur o`rganib mag`zini chaqish, ular tashkil etgan ijod pillapoyalaridan ko`tarilib yangi zamon madaniyati ravnaqiga xizmat etish kabi g`oyat mas`ul va e`tiborli ishlar ko`lami kutib turibdi. O`zi bir olam bo`lgan me`morlik san`ati va u bilan chambarchas bog`liq xalq amaliy san`ati, xususan naqqoshlik, o`ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalardagi ijod namunalarini o`rganish yo`lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud.

Hunarmandchilik –xalkimizning milliy qiyofasi, o’zini butun dunyoga ko’rsata oladigan noyob soha. Otameros kasb va hunarlarni e’zozlash mamlakatimizdagi har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Mustaqillikgacha Buxoro viloyatida milliy hunarmandchilikning 65 turidan atiga 5ta turi saklanib kolingan edi. «Xalk xunarmandchiliklari va amaliy san’atni yanada rivojlantirishni davlat yo’li bilan qullab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risidagi» Farmonidan so’ng, 30 dan ortiq unut bo’lgan hunar turlari va ish texnologiyalari qayta tiklandi. Hunarmandchilik sulolari aniqlanib, qayta tiklandi. Sharqona uslubdagi yangi «usta-shogird» maktablari tashkil etilib, minglab yoshlarga unitilgan milliy hunarlarimiz o’rgatildi.

## **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

**ABRAZIV** (ruscha < frantsuzcha) - metal, oyna, yog'och va shu kabilarning yuzini sillqlash, jilolash, pardozlash, shuningdek asboblarni charxlash uchun ishlatiladigan mayda zarrali juda qattiq modda.

**ALIFMOY** (ruscha - olifa) - alif moy (to`g'ri yozilishi shu shaklda) zig'ir yog'dan qizdirib tayyorlangan va bo`yoqchilikda ishlatiladigan moy.

**ARAQI** (fors-tojikcha) - shiftning gir aylanasiga, bo`g'ot ostiga, eshik, deraza tepasiga tashlangan yog'och, yog'och naqsh; karniz.

**ARTEL** (ruscha) - biror kasb-hunar egalarining bиргалашиб, jamoa bo`lib ishslash uchun tuzilgan birlashmasi; биргалашиб, jamoa bo`lib ishlovchilar tashkiloti.

**ASBOB** (arabcha) - ish quroli moslama; duradgorlik, o`ymakorlik, kandakorlik, chilangarlik va boshqalarda biror ish bajarishda foydalaniladi.

**AXTA** - naqsh yoki rasmni qoqozga chizib, chiziq yo`llari igna bilan teshilib tayyorlangan andaza; nusxa, ulgi.

**BOLG'A** - duradgorlik, o`ymakorlik, zargarlik va hakkazolarda ishlatiladigan yog'och dastali asbob.

**BOLOXONA** (fors-tojikcha) - mahalliy tipdagi imoratning ikkinchi qavati va shu ikkinchi qavatdagi uy.

**GABARIT** (ruscha < frantsuzcha) - vagon, mashina, inshoot va shu kabilarning sirtqi, eng chekka o`lchami.

**GIL** (fors - tojikcha) - 1). CHinni buyumlar yasash uchun ishlatiladigan oq loy, kaolin.2). Umuman loy, tuproq.

**GIRIH(arabcha)** - murakkab handasiy shakllarning takrorlanishlaridan tashkil topgan naqsh turi; chigal, tugun (Naqsh asosini kvadrat, uchburchak, to`o`ri to`rtburchak va ko`pburchak shaklli `taqsimlar tashkil etadi).

**GRAFIT** (ruscha < grekcha) - 1). Uglerodning bir turi, to`q kulrang yoki qora tusli mineral (qalam va o`tga chidamli buyumlar yasash uchun ishlatiladi).2). qalamning shu mineraldan yasalgan yozadigan qismi.

**GUZAR** (fors-tojikcha) - qishloq yoki mahallalarda odatda ko`chalarining kesishgan erida, chorrahalarda joylashgan, choyxonalari, qassobxona, baqqollik kabi do`konlari bo`lgan obod, gavjum va serqatnov joy.

**GULLI GIRIH** - islimiy va girih naqsh elementlaridan tashkil topgan naqsh turi.

**GUMBAZ** (fors-tojikcha) - qubba shaklidagi tom; qubba taxlitidagi narsa.

**DASTGOH** (fors-tojikcha) - duradgorlik qurilmasi, stanok.

**DILA** - eshik yoki darvoza chorcho`pi orasidagi taxtacha.

**DURADGOR** (fors-tojikcha) - yog'ochdan imorat va boshqa har xil buyum yasovchi hunarmand, yog'och ustasi; najjor.

**JILVIR** - buyumlarning sirtini silliqlab, sayqal, jilo berib pardozlashuchun moslab tayyorlanib yuzasi qum bilan qoplangan pardoz qoqozi.

**ZAMIN** (fors-tojikcha) - naqsh bezagining guldan tashqari tag qismi; asos.

**IZORA** - devorning tokcha bilan bino sahni orasidagi pastki qismi, shu qismiga ishlanadigan bezak.

**INKRUSTATsIY** - naqsh, terma naqsh, qadama naqsh.

**ISKANA** (fors - tojikcha) - yog'och taxtani o`yish, yo`nish, teshish uchun qo`llaniladigan, uchi yapaloq o`tkir po`lat tiqli asbob.

**ISLIMIY** - o`simpliksimon naqsh turi.

**QAYROQ** - pichoq, ustara, iskana, tesha va boshqa asboblarni qayrab, o`tkir qiladigan tosh.

**QIPIQ** - yog'och, temir kabi narsalarni arralaganda yoki egovlaganda hosil bo`ladigan mayda zarrachalar.

**QIRINDI** - yo`nish, randalash natijasida hosil bo`ladigan yupqa lenta yoki qipiqlik shaklidagi chiqit.

**QIROV** - o`tkirlangan asbob tiqida qoladigan metall parchalari (u odatda qayroq toshning uzinasiga bir maromda surtish yo`li bilan to`kiladi).

**QOVUSHOQ** - yuqori qovushqoqlik xossasiga ega bo`lgan; qovushqoq, yopishqoq.

**KOMPONENT** (ruscha < lotincha) - biror narsaning tarkibiy qismi.

**KO`SHK** (ko`chik) (fors-tojikcha) - baland, bahavo qilib solingan, to`rt ustunli, tomi qubbali engil qurilma; imorat, saroy, qasr.

**LAVH** (arabcha) - kitobni qo`yib o`qish uchun yasalgan maxsus moslama, kursicha, taglik.

**LOK** (fors - tojikcha) - smolani spirtda eritib hosil qilinadigan, buyumlarni yaltiratish, pardozlash uchun ishlatiladigan suyuqlik.

**MONUMENTAL** (ruscha - monumentalniy) - 1) hashamatliligi bilan katta taassurot qoldiradigan; ulkan, salobatli, muhtasham. 2) Asosli, chuqur mazmunli. 3) Ulug'vorlik bilan ajralib turuvchi va yuksak formalarda ifodalangan.

**NAMOYON** (fors - tojikcha) - 1). Yaqqol ko`rinib turadigan, gavdalananadigan.

**NUSXA** (arabcha) - 1). Bir turdag'i narsalar haqida tasavvur beradigan namuna.

**PAYRAXA** - yog'ochni cholganda, randalaganda hosil bo`ladigan palaxsa chiqindi.

**PARGOR** (fors-tojikcha) - pargor, tsirkul.

**PARGORI NAqSH** - tsirkul yordamida chizilgan yoki chiziladigan naqsh.

**PARDOZ** (fors-tojikcha) - narsalar sirtini bo`yash, sillqlash va shu kabi yo`llar bilan ularni chiroyli, ko`rkam qilish va shunday ishloving o`zi; buyum sirtiga oxirgi ishlov berish.

**PARMA** (fors - tojikcha) - Aylanma harakat qilib tig'i bilan narsalarni teshadigan asbob.

**PESHTOQ** (fors-tojikcha) - binolarning old tomonidagi serhasham yuqori qismi; ark.

**PIRAMON** (fors-tojikcha) - deraza yoki eshik tepasidagi tokcha.

**POYDEVOR** (fors-tojikcha) - 1. Bino, inshoot yoki ularning ayrim qismi ostigatayanch uchun quriladigan mustahkam asos, fundament. 2. Zamin; negiz, baza.

RANDA (fors - tojikcha) - yog'och va taxtalarni tekis qilib yo'nish, silliqlash uchun ishlataladigan o`rtasiga po`lat tio` o`rnatilgan dastali duradgorlik asbobi.

RELEF (ruscha < frantsuzcha) - 1). Er sirtidagi turli notekisliklar - balandlik, pastlik, tog' va shu kabilar yig'indisi.

SARROV (fors - tojikcha) - binoning ikki yon devoriga, to`sinlar ostidan solinadigan yog'och.

SMOLA (ruscha) - ignabargli va boshqa ba'zi bir o`simliklardan ajralib chiqadigan, havoda qotib qoladigan elimkash modda; shira.

STERJEN (ruscha) - metall va boshqa materiallardan tayyorlangan tayoqcha detal.

TABAQA (arabcha) - darvoza, eshik va deraza kabilarning ochilib-yopiladigan har bir bo`lagi.

TESHA - tig'i dastasiga nisbatan ko`ndalang o`rnatilgan chopish, teshish quroli; duradgorlik asbobi.

TIG' (fors - tojikcha) - pichoq, ustara, iskana, tesha va boshqa asboblarni charx yoki qayroq tosh yordamida o`tkirlangan qirrasi.

TURUNJ - doira shaklidagi naqsh.

TO`SIN - imoratning va umuman har qanday qurilma va inshootning tepasiga ko`ndalang solingan baqquvat xari; bolor.

FASAD (italyancha - fassiata) - bino, inshootning tashqi, ya'ni old, orqa, yon, hovli, boo` va ko`cha tomonidan ko`rinishi.

FON (ruscha < frantsuzcha) - umumiy rang, ko`rinish, orqa ko`rinish, zamin.

FREZER (arabcha) - aylanma harakat qilib metall va yog'och ashyolarga ishlov beradigan ko`p tishli kesuvchi asbob.

HANDASA (arabcha) - geometriya; matematikaning fazoviylar shakllari va ulardagi munosabatlarni o`rganadigan bo`limi.

XITOY qOg'OZI - shaffof qog'oz, kalka.

**XOKA** (fors-tojikcha) - maxsus tayyorlangan kukun. (Naqsh yoki tasvirni axtadan bezatiladigan yuzaga o`tkazishda foydalanilib yupqa latta yoki ikki qavat dokaga maydalangan pista ko`mir yoki bo`r kukuni solinib xaltacha holida tugilgan bo`ladi).

**XOMASHYO** (fors - tojikcha g' arabcha) - sanoatda qayta ishlanadigan dastlabki material.

**CHAKICH ZAMIN** - yog'och o`ymakorligida o`yma naqsh zaminiga ishlov berilgansan'at asari.

**CHARX** (fors-tojikcha) - kesuvchi asboblarining tig'ini o`tkirlaydigan, qayraydigan asbob.


**CHATNAGAN** - darz ketgan, yorilgan.

**CHEKMA** - nuqta, chakich nuqtalari.


**CHEKMA PARDOZ** - o`ymakorlikda naqsh zaminini chakichlab (nuqtalab) pardozlash.


**CHORCHO`P** (fors - tojikcha) - 1). To`rtta taxtachadan tuzilgan ramka; eshik va darvozalarining asosini tashkil qiluvchi to`rtta taxta.


# ILOVALAR:




Yog'och o'ymakorligi asboblari




















141-расм. Доира шаклидаги нақш композициялар.

































## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Bulatov S.S. «Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligiga oid atamalar izohli lug'ati». Toshkent. Mehnat, 1991.
2. Zoxidov N.M. «Yog'ochsozlik va metal bilan ishlash». Toshkent: «Voris»-2007
3. K. G'ulomov. «Amaliy san'at». Toshkent -2007.
4. Bulatob. S., Yo'ldoshev G'. «Ashyoga badiiy ishlov berish». Toshkent -2007.
5. Axmedov M, G'ulomov K, Mansurov N. «Amaliy san'atda kompozitsiya». Toshkent – 2007.
6. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T., Azimova D.E. «Ustaxonada amaliy mashg'ulot». Toshkent -2010.
7. Qodirov S.K. «Materialshunoslik». Yo'gochga ishlov berish bo'yicha. «Fan va texnologiya» nashriyoti. Toshkent – 2012
8. Gamov E.S., Miklyayev N.P., Gorbunov I.P. «Sposobi obrabotki drevesini». Lipetsk-2013.
9. Borodina M.R. «Materialshunoslik». Toshkent-2013
10. Qayumov N.R. «Me'moriy-dekorativ san'ati ashyolariga badiiy ishlov berish» Toshkent - «Ilm ziyo» - 2016
11. Ahmedov M. «Yog'och o'ymakorligi». Toshkent-2017.
12. Feruz Po'lotov. «Buxoro yog'och o'ymakorligi». Buxoro: Durdon-2018